

III

Ботир Рахимов

# Хоразм сувора туркумлари



**БОТИР РАХИМОВ**

**ХОРАЗМ СУВОРА ТУРКУМЛАРИ**

*(Услубий қўлланма)*



Урганч - 2024

## Нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир:

**Дониёрбек Обидов,**

Урганч давлат университети  
Санъат кафедраси ўқитувчиси

*Тақризчилар:*

**Рустам Болтаев,**

Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори,  
Урганч давлат университети доценти

**Даврон Рахимов,**

Урганч ихтиослаштирилган санъат мактаби  
мутика назарияси бўлими бошлиги

Ушбу кўлланмада Хоразм Сувора туркумларининг яратилиш тарихи, Сувора ижрочилик мактабининг машҳур намояндлари, эл ардоғига мушарраф устозлар ҳақидаги маълумотлар тўпланиб, олтита Сувора туркумларининг нота матнлари берилган. Нота матнларига илова қилинган QR-код гипер ҳаволаси ёрдамида мобил телефон сканери орқали тинглаш имконият яратилган.

Услубий кўлланмадан мусиқа ва санъат йўнилишида таҳсил олаётган талабалар “Маком якка хонандалиги” фанидан кўшимча адабиёт сифатида фойдаланишлари мумкин. Шунингдек, китоб соҳа мутахассислари, мумтоз мусиқа ихлосмандлари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган. Китобдаги матнлар кирилл ва лотин ёзуvida берилди.

**Кўлланма Урганч давлат университети Ўкув-услубий Кенгашининг 2024-йил 22-февралдаги 3-сонли йигилиши Қарори билан чоп қилишга тавсия қилинган.**

## СУВОРАЛАР ХОРАЗМНИНГ МАЪНАВИЙ АШУЛАЛАРИ

Маълумки, Хоразм Сўғд ва Бактрия давлатлари каби Марказий Осиёдаги энг қадимий цивилизация марказларидан биридир. Шарқ ва Гарбни боғловчи Буюк Ипак йўли харитасига назар ташласангиз, хозирги кунда ҳам замонавий маданиятимизнинг ажralmas қисми бўлган Урганч, Хива, Бухоро, Самарқанд, Тошкент ва Термиз шаҳарларини кўришимиз мумкин.

Марказларнинг тарихи ва маданияти ҳақида китоблар ёзилган, фильмлар суратга олинган. Бугунги кунда бу шаҳарлар антик даврни севувчиларнинг нигоҳи тикилган сайёҳлик марказлари ҳисобланади. Бу марказлarda сақланган маълумотлар ва ҳикоялар Ўзбекистоннинг бетакрор гўзаллигини ҳис қилишни истаганлар учун жуда муҳим. Шу билан бирга қалъалар деворлари ортида, қадимий ёдгорликлар лабиринтларида жаҳон жамоатчилигини тобора ўзига жалб этаётган шеърий, мусиқий ва хореографик сирларнинг очилмаган кўплаб тугунлари сақланиб қолган. Булардан ташқари, жуда кўплаб мусиқий ва шеърий анъаналар мавжуд. Бироқ, шу билан бирга улар илмий ва этнографик нуқтайи назардан кам ўрганилган. Хоразм воҳаси худудида мавжуд бўлган сувора ашулалари ана шундай ноёб мусиқий ва шеърий ёдгорликлар қаторига киради.

Сўз ва соз санъати – шеърият, бир-бири билан чамбарчас боғлиқ ҳолатда асрлар давомида ривожланиб, бу иккала санъат маънавий қадрият сифатида тушинилган ва ҳалқимиз томонидан эъзозланиб келинган. Бозорларда, катта-катта йигин, ҳалқ сайиллари ва байрамларда шеърият ва мусиқа одамларнинг кўнглини овлайдиган

ягона восита бўлган. Инсонлар қувончили қунларда, тўй-томушаларда турли кўринишдаги рақсларга тушиб, ўзларининг тўлиб-тошган ички завқларини чиқариб олишган.

Тасаввуфнинг буюк намояндалари муштарак бўлган сўз (шеърият) ва соз санъатидан баҳраманд бўлишлари учун тариқат илмига “самоъ” тушунчасини киритгандар.

Самоъ (ёки сиймо) “эшитиш” маъносида бўлиб, зикр ва илоҳиётга шўнгиш асносида машшоқлар томонидан куйланиб туриладиган ашуулаларга нисбатан ҳам айтилган. Зикр мажлислари айтимларига назира қилиб яратилган ашуулалар Фарғонада “Катта ашула”, Бухорода “Хонақои”, Хоразмда эса “Сувора” деб номланган. Илоҳий зикрларга хос майин ноласифат ҳаракатларда ижро қилинган рақслар “Лазги” ва “Оразибом” деб номланган. Бу қўшиқ ва рақслар ижролари бизнинг давримизгача урфий йўл билан етиб келган.

“Сувора” халқ оғзаки ижодида қўлланилган тушунча бўлиб, этимологик жиҳатдан ҳодисанинг ташқи, расмий томонини билдиради. Сувора (суръат) сўзининг ўзаги сўфийлик маросимларидаги сирли хусусиятига эга бўлган руҳий ашуулаларнинг ташқи томонини англатган. Анъанага кўра, улар дарвешлар томонидан хонақо ёки қаландархоналарда бўлган сўфий зикрларида айтилган.

Ўтган асрнинг 20-йилларигача суворалар сўфий, дарвеш ва қаландарларнинг яширин йиғинларида ижро этилган. Маросимларнинг туридан қатъий назар муҳлислар томонидан сувора ашуулаларига муқаддас сўзларни ўқиш талаб қилинган. Сувора

ижрочилигига шеъриятга, ашула айтишга ва мусиқа чалишга бўлган муҳабbat ҳозирги давр ижро анъаналарида ҳам сақланиб қолган.

Суворанинг тарихий илдизлари XV асрда Ҳиротда Алишер Навоий давридаги сирли сўфия (сўфий) деб аталган руҳий ашуулаларга бориб тақалади. Навоий даврида тасаввуфий айтимлар “сувия” дейилган. Хоразмда эса “сувора” номини олган. Навоий даврида бадиий асарнинг ички мазмуни “сийға”, ташқи шакли “суврат” деб аталган. Хоразм тасаввуфий айтимлари амалиётида уни “сувора” дейишлик расм бўлиб кетган.

Бу ашуулаларда ҳодисанинг моҳияти, Аллоҳга бўлган муҳабbat, қалбнинг унга бўлган хоҳиши, воситачиларсиз буюк Рухга сўз ва мусиқа орқали қалбнинг тортишиш кучи ифодаланган.

Бу турдаги ашуулалар Шарқда ислом дини тарқалишининг биринчи юз йиллигидан бошлаб маълум бўлган. Бундай ашуулалар ижроичilar учун ислом арабблари томонидан кенг оммага тарқатилган ва ҳатто баъзи имтиёзлардан баҳраманд бўлган.

Буюк ислом уламолари мусикани инсон руҳий оламига таъсирини англаган ҳолда унинг инсон тарбиясидаги ўрни ҳақида асарлар битишган. Лекин диний тизим қаршилиги туфайли маълум даврларда таъқиқлашлар ҳам бўлган.

Сувораларни асослари қаландархоналарда шаклана бошлаган. Исломда эса асосан жамоатни ибодатга чақиришда муаззиннинг гўзал оҳанглик овози билан аzon чақиришда қўлланиб келинган ҳамда ахли тариқат йиғинларида мусиқа оҳанглари ва усувлари воситасида зикр суҳбатлари бўлган.

“Хоразмда қаландархоналардаги исломий рухга бўйсунган ҳолда дарвешлар айтимиға назира сифатида Полвон дузчи томонидан Сувора туркумлари яратилған”<sup>1</sup>. Сувораларга ўқиладиган сўз матнларида, шариат одоб қоидаларидан чиқиб кетмаслик шарти билан сўз танлаганлар. Аста секинлик билан сувора ижрочилиги ҳофизлар дастурида оммалаша бошлаган. Ҳофиз ва хонандалар ижро этган ҳар бир Сувора йўлини ҳалқ тан олган. Ўз ижроларида юртнинг машхур шоирларининг сўzlаридан танлаб, шу орқали улар гўянда, суворачи деб мухлислар орасида эъзозланган. Бу услубдаги ижрочиларни шаҳар ва чекка қишлоқларда яхши кутиб олганлар. Сувора ашулаларининг ижро услублари кундалик ҳаётимизда, хозирги вақтда ҳам сақланиб келинмоқда.

Хоразмда ана шундай маънавиятпарвар, маърифат куйчилари алоҳида ажralиб суворачи деган ном олганлар. Улар сувора ижроларида Аллоҳга ҳамд, Пайғамбаримизга дурудлар айтиб, ҳалққа маъқул бўлган, яхшиликка даъват этадиган насиҳатомуз мухаммасларни танланган. Ҳалқ ҳам, диний раҳнамолар ҳам уларнинг ижроларидаги назмий матнларга эътибор беришга ўрганишган.

Суворалар мумтоз мусиқанинг бошқа жанрларига нисбатан куйидаги хусусиятлари билан ажralиб турган. Аввало, бу жанрнинг кўп қирралиғи. Бир томондан, сўzlари очиқ мавзууда ўқиладиган шеъриятнинг бир тури. Унда асосий мавзу – Худога бўлган мұхабbat, унинг маҳфийлиги, бенуқсонлиги, шу билан бирга, соддалиги, самимийлиги, инсоннинг ички дўсти эканлиги куйланган. Бу

ғояларни барчаси сувораларнинг поэтик асоси бўлиб хизмат қиласиган шеъриятта сингиб кетган. Суворанинг самимий, саҳоватли мусиқий оҳанглари ҳам бунга мос келади. Инсон овози, сувора ижрочилигига асосий мусиқий восита ва мукаммал мусиқий омил хисобланади. Шунинг учун ҳам, овоз етакчи бўлиб, чолғу асбоби ҳофиз учун ёрдамчи вазифани бажаради.

Сувора ижрочилиги ўтмишда мумтоз мусиқамизнинг бошқа жанрларидан жамоавий қўшиқ айтиш яъни, икки ёки учта қўшиқчини мувофиқлаштириш, жўрнавозлик ва ҳамнафаслик услуби билан ажralиб турган, лекин Европа мусиқасидаги хор полифониясига ўхшамайди. Жамоавий ижролар бир-бирига ёрдам берган. Бу ижролар инсон овозининг чекланган жисмоний (нафас олиш) ва вокал имкониятлари (диапазони) шароитида ёрдамчи, қўшимча сифатида ишлатилади.

Суворани жамоавий куйлаш ўз-ўзидан бошланғич хусусиятга эга эмас. Бу келишув ва уйғунликка асосланган юксак профессионал санъатдир. Сувора хонандалари узоқ йиллик назарий ва амалий фаолияти натижасида шундай даражага ёки маҳоратга эришганлар. Амалда суворачилар гурухи “ҳамнафаслик” деб аталган.

Сувора ижрочилигига битта, иккита (камдан-кам ҳолларда учта) ижрочи биргалик чиқишиади. Бундай ижронинг хусусиятидан мусиқий ва услубий барқарорлик келиб чиқади. Бу “анъанавийлик” услуби мусиқий ва ифодали хусусиятларни бир сўз билан белгилайдиган нарса.

Бугунги кунда турли мамлакатлар олимлари жанр ва шаклларнинг қиёсий тавсифи билан шуғулланар экан, уларни одатда

<sup>1</sup> Мальумот Ўзбекистон ҳалқ артисти К.Исмаиловдан ёзиб олинган.

учта асосий йўналишга: классик, анъанавий ва замонавийга ажратиб, уларни умумий деб аташади. Масалан, 2022-йил 8-июн куни Тошкент шаҳрида “Замонавий мусиқа таълими ва илм-фанини ривожлантириш муаммолари” мавзусига багишланган халқаро конференцияда бўлиб ўтган ШХТ (ШОС)га аъзо давлатлар мусиқа олий ўқув юртлари ректорларининг декларациясида ҳам шундай тасниф мавжуд эди.

Фитрат ўзбек мусиқасининг академик жанр ва шаклларига багишланган биринчи китобини “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи” деб атайди. Ушбу китоб ўзбек мусиқаси назарий асосининг бирлигини баён қилиш ва тавсифлаш билан бошланади. У мумтоз (академик) мусиқа ва шеъриятнинг бирлиги юксак даражага кўтарилиган бу ҳодисасининг назарий асоси сифатида Алишер Навоий ижодий меросини кўради.

Анъанавий шеърият ва мусиқа санъатининг юксак тоифаси ҳақида гапирадиган бўлсак, “Сувора”нинг маънавий ашулаларини яққол мисол қилиб келтириш мумкин. Ўзбекистоннинг турли ҳудудларида мусиқий ва шеърий ижоднинг бундай тури амалда турлича номланади: Хоразмда “Сувора”, Фарғона водийсида “Катта ашула”, Бухорода “Хонақои”. Аслини олганда сувора, хонақоий, катта ашулаларнинг зоти бир: “Ваҳдат”<sup>2</sup> у “Вужуд”<sup>3</sup> билан руҳий завқ олами ўртасидаги ҳолатларни адабий-музиқий ифодаси. Уларнинг ташки белгилари (номланишлари) турлича бўлсада, аммо моҳияти “Олий Рух” олдидаги руҳга ўхшайди.

Мусиқий ва шеърий хусусиятларига кўра Сувора, Катта ашула ва Хонақои ўртасида ҳам умумий жиҳатлар кўп. Тил ва мусиқий ифодали хусусиятларда ҳам кўплаб ўхшашликлар мавжуд.

Анъанавий қўшиқларнинг бу жиҳатини классик ва замонавий услублар ўртасидаги ўрта бўғин сифатида кўриш мумкин. Дарҳақиқат, суворанинг мусиқий тузилишига назар ташлайдиган бўлсак, уларда мумтоз мақомлар билан кўплаб ўхшашликларни, ҳатто бавзи сўз бирикмаларини бир хиллилигини учратиш мумкин. Масалан, мақомларнинг шаклларини тузилишида учта таянч нуқтаси мавжуд: тани мақом (сараҳбор), наср (ён қисмлари) ва яқунловчи – уфарлар. Худди шу шакл сувораларда: Она сувора (Дастлабки сувора), Чапандози сувора (ён қисми) ва Савти суворанинг чекка қисмларидан иборат.

Сувора туркуми бешта асосий таянч қисмлар: Катта (Она) сувора, Хуш парда сувора, Кажҳанг сувора, Чапандози сувора, Як парда сувора ҳамда уларга эргашган кичикроқ шаклдаги Савти сувораларни ўз ичига олади. Катта сувора Она сувора ҳам дейилади ва мазмунига кўра Шашмақом Сараҳборлари ва Олти ярим мақомнинг Тани Мақомларига тўғри келади.

Мақом ва сувора йўллари аслида соз ва сўз муштараклигининг олий намунаси. Шунинг учун ҳам сувора ижро этувчи ҳофизлар одатда шеърият билимдонлари ҳам бўлганлар.

Хоразм сувора йўлларида “Чапандози сувора” атамаси мавжуд. Шашмақом ва Олти ярим мақом тизимида “Чапандоз” усулнинг номи. Чапандози суворада бу ибора усулдан кўра кўпроқ куй йўлига тегишли нисбатда ишлатилади.

<sup>2</sup> Ваҳдат ( бирлик, яккао ягоналик) ваҳдати вужуд. Абадий ягона Аллоҳ бор деб хисобловчи таълимот.

<sup>3</sup> Вужуд ( борлик, мавжудлик; гавда, жисм). Кишининг бутун борлиги, жони-тани; аъзой бадан.

Сувора ва мақом ижрочилиги анъаналарида ташки кўринишдан кўплаб ўхшашликлар мавжуд. Масалан, импровизация (бадиҳагўйлик), мақомларда яширин бўлса, сувораларда ижро маҳорати ва бадиий баркамоллигига боғлик. Руҳий мадҳияларда бу он аниқ, очик характерга эга. Мақом услубларида икки ижрочининг биргаликда куйлаши “ҳамнафаслик” деб аталса, суворада “дийралишма” (қарама-қарши рақобат) деб таърифланади. Сувора жанрининг тузилмаси – авжи ичида баланд авжларни қилиш билан мақомлар йўлидаги авжлардан фарқ қиласди. Озод Иброҳимовнинг “Саҳих суворийлар” китобида бу кўринишдаги авж қуидагича баён этилган: “Суворий бош бўғими тонлиги тамом бўлган жойда туриб тўрт парда юқоридан авж (ҳанг) қилганлар. Бу антиқа авжнинг номи “Дастгирий<sup>4</sup> фано” деб аталади”<sup>5</sup>. Бу авж сувора ижрочилари томонидан “Аллоҳ ўз паноҳингда асра” калимасини айтиб ижро қилинган.

“Дастгирий фано” авжини айрим устозлар 5 хонадан, баъзилари эса 6 хонадан кейин ижро қилган. Авжда (О-О-О деб) оҳанг ижро қилиниб, “Дастгирий фано” сўзини қўшиб айтганлар.

Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Раҳматжон Қурбонов “Санъатнинг сирли олами” китобида асосий бешта сувора ва устозлар томонидан ижод қилинган сувораларни тузилиши, номланишини таҳлил қилиб ўтган.<sup>6</sup>

Ўтган асрда яшаб ижод этган ва ўз санъати билан халқнинг эътиборини тортган, хурмат ва ихлосига сазовор бўлган Хоразм

сувора ижрочилик анъаналарини биз давримизгача сақлаган Полли дузчининг шогирдларидан бири Қуржи ота Авазматов, Мадраҳим Шерозий, Қаландар ота Ёқубов (халқ орасида лақаби “Банги”) ва Ҳожихон Болтаевлар бўлган. Бу ҳофизлар қўлида дутор билан сувораларни фақат таянч пардаларини (куйни чалмасдан) чертиб, асосий эътиборни ҳофиз овозига бериб ижро қилишган.

Полли дузчи мактабидан таълим олган Ҳожихон уста сувораларни янги бир ижро услубини яратган<sup>7</sup>. У аввал диний илмларни, эътиқодни ўз даврининг мўътабар пири муршидидан пухта таълим олгандан сўнг халқни маърифатга чорлашни суворахонлик илиа олиб бориш услубини танлаган.

Ҳожихон ота умрининг энг етук палласи Шўролар тузуми даврига тўғри келди. Бу тузум суворийлар у ёқда турсин, унинг назмий матнларини ҳам қатагон қилган эди. Ҳожихон ота ўтиб кетган устозлари изидан бориб, суворийларда илоҳий айтимлар айтиб юрган. Шу орқали халқни иймон- эътиқодли қилиш йўлида ўзининг имконияти доирасида ҳолис хизматлар қилган. Унинг ижросидаги сувораларда мадҳу санолар янграган.

Мақомдон устоз ёшлигидан этиқдўзлик ҳунарини ўрганиш билан бир қаторда диний эътиқодга, хусусан, тасаввуфий гояларга катта ихлос қўйди. Суворий йўлида айтиладиган ғазал ва муҳаммасларнинг айрим байтларини қайта-қайта такрорлаб, уларнинг мағзини чақишига ва таъриф этилаётган туйгулар гирдобида юрди. Айрим шеърларни куйга солиб, ўзича хиргойи қилишга интилди.

<sup>4</sup> Кўлнимни тут.  
<sup>5</sup> О.Иброҳимов Саҳих суворийлар Т.: 2004. й. 4.  
<sup>6</sup> Р.Курбонов. “Санъатнинг сирли олами. Санъатнома Г” китобининг 172-179-бетлар.

<sup>7</sup> Таник усул утаси Сайдназар Отажанов, Суворалар олдинлари доира усули жўрлигисиз ижро қилингани, Ҳожихон уста ижроси куляй булиши учун усула солиб айтиб бошлагани ҳакида гапириб берган. Ҳожихон ота савияси паст, юзаки, пала-партиш шеър ва газалларга умуман мурожаат қилмас, ўз ижролари билан маънавиятни, маърифатни улуглашга хизмат қилиб келгандарини гапириб бергандар.

Кунларнинг бирида хазорасплик таниқли тасаввуф пешвоси Машарипжон (Муҳаммад Шариф) Пир Хонқага келиб қолганда Сайид Ота кадамгоҳидаги хонақода унинг атрофида ибодат ва мулоқотлар ўтказилди. Ана шундай нафис мажлислардан бирида кичик Савти суворалардан айтган ёш Ҳожихон ва Нурмуҳаммадлар Машарипжон Пир назарига тушиб қолди. Ёш йигитларнинг нафосатли истеъдодидан таъсирланган улуғ зот санъат йўлида ҳалол хизмат қилишга оқ фотиха берди. Бу маросим, ўз фарзандининг ҳофиз бўлишини унча хуш кўрмай юрган Ҳожихоннинг отаси учун ҳам ҳал қилувчи воқеа бўлди. Пир дуосидан сўнг оталари ҳам розилик бердилар. Ҳожихоннинг ўзи эса бутун вужудини ҳофизлик санъатига, укаси Нурмуҳаммад эса ҳофизлик ва созандачиликка бахшида этишга қатъий бел боғлади.

Кейинчалик ҳаёт тажрибасининг ўзи мақомпарастлик ва суворийхонлик мухити – эътиқоди баланд бўлган ҳофизга устозлик қилди. Ҳар бир етук санъаткор билан бўлган мулоқот унга ҳофизлик ва созандалик илмининг янги қирраларини очиб бораверди.

20-йиллар охири – 30 йиллар бошларида Ҳожихон катта санъат йўлига ёш куч сифатида дадил кириб келаётган пайтларда хос мақом урф-одатларида камол топган номдор устозлар ҳали ҳаёт эди: булар танбурчи Матёкуб Харрот, беназир шоир ва созанда Комил Девоний, ғижжакчи Отажон Абдулло ўғли (Девон бобо), танбурчи ва ҳофиз Рассоқберган Омонов, суворийхон-гўянда Полвонниёз Ота (Полли дузчи), дуторчи ва гўянда Курбонниёз Авазмат ўғли (Куржи ота), дойрачи ва ҳофиз Матёкуб Отажонов, гўянда Мадраҳим Ёкубов (Шерозий) ва бошқалар.

Уларнинг ҳар бири ўз йўлида тарбият кўрган ва шогирдлар эргаштира бошлаган етук санъаткорлар эди. Қадимий урф-одатларга кўра, бу санъаткорларни ўзига хос мактаблар бошида турган устозларга қиёс қилиш мумкин. Ана шундай мухит ёш санъаткорларга талаб ва эҳтиёжларга қараб билим ва маҳорат ошириш имкониятини берарди. Шундай қилиб, Ҳожихоннинг маънавий йўлбошчиси Машарипжон пир бўлса, созандалик борасида унга йўл-йўриқ кўрсатган, дастгирик қилган гурланлик ҳофиз Бобожон бола бўлди.

Ҳожихон кўпроқ хонаки базмларда, соз ва сўз қадрига етадиган мухлислар даврасида мириқиб ашула айтиб, ўзи ҳамроҳатланиб, тингловчиларга ҳам ҳузур бахш этиб юрди. Ҳожихоннинг ўзлигини тарқ этиши, мақом ва сувора йўлларини илоҳий ҳолатларда айтиши тўғрисидаги гап-сўз ҳалқ оғзига тушиб, ҳангома ва ривоятларга айлана бошлади.

Ҳожихон санъати, энг аввало, ўзининг етуклиги, мукаммаллиги ва бадиий баркамоллиги билан алоҳида дикқатга сазовор. Ҳофиз 80 ёшга тўлганида ҳам баланд авжлардаги тик пардаларни бемалол қийналмасдан ижро этар эди. Шунинг учун ҳам Ҳожихон ҳеч вақт ашула айтиб чарчаган, қийналган эмас. Ҳофизлик санъатининг мухим шарти ҳам шунда.

Мақом ва сувора йўллари аслида соз ва сўз муштараклигининг олий намунаси. Шунинг учун, етук ҳофизлар, одатда, шеърият билимдонлари ҳам бўлганлар. Ҳожихон ижоди ана шу муштаракликнинг жиддий кўриниши. Улар, ўзининг ижро дастурлари доирасида ғазал биладиган бошқа ашулачилардан фарқли ўлароқ,

чинакам шеърият билимдонлари даражасида гавдаланади. У юзлаб шеърларни хотирасида сақлаб, кетма-кет бир неча кун ўзини такрорламасдан ғазал ва мухаммаслар айтишда муҳлисларни доим ҳайратга соглан.

Ҳофиз шу даражада шеърият ошноси бўлганки, Фузулий, Машраб, Махтумкули ва Огаҳий девонларини деярли ёддан билган. Бундан ташқари у Машарипжон Пирдан олган таълимотига биноан чуқур фалсафий мавзудаги шеърларнинг мазмунини чақишида, рамзий-мажозий тимсоллар никобига яширинган маъноларни чақишида ҳам пешқадамлик қилган.

Устоз талқин этган мақом ва сувора йўллари жуда кўп ижро вариантиларидаги овоз ёзувларида бизгача етиб келган. Демак, санъаткор доим эркин ижодий ҳолатда бўлган дейиш мумкин. Унинг ижросидаги ҳар бир асар муайян мақом, сувора йўлидаги куй ёки ашула эканлигига шубҳа қолдирмайди. Лекин ҳар сафар у янги ижод илҳоми билан суғорилганлиги ҳам бегумон. Бетакрор ижодкор санъатининг юксаклигининг асл маъно-мазмуни ҳам шунда.

### ДИЙРАЛИШМА – СУВОРА АЙТИШУВИ

Хоразмда ашула ижрочилигига айрим забардаст ҳофизларга нисбатан “куллиёттӣ” деган ибора ишлатилган. Бу ҳофизлар маълум бир шоир девонига киравчи шеърларни тўла ёддан билганлар. Масалан, устоз Ҳожихон Болтаев Огаҳийнинг “Таъвиз-ул-ошиқин” (“Ошиқлар тумори”) девонидаги барча ғазал ва мухаммасларни ёддан билган ва ўз ижроларида фойдаланган.

Сувора ижрочилигига ҳофизлар сўз ва усул ўйнатиш деган иборалар қўлланилган. Бу услубда ижрочилар ғазалларни қўшиқ оҳангларига солиб айтилганда уларнинг шеърий вазнлари умумий мусиқий-ритм ичига сингиб кетади. Бунинг сабаблари қўйидагича: мусиқий омиллар, хусусан, такт ўлчови, дойра усули, чолғу асбоблар ҳамда ижродаги ургу воситалари шеър вазнидагиларга нисбатан кўп ва кучлироқ бўлганлиги учун эшитилишда улардан устун келади. Шунга кўра ижрода шеърга кўра мусиқий вазн олдинги қаторга чиқиб олади.

Аслида, амалиётда шеър ҳамда куй вазнларини учма - уч мос келтириш жуда бир қатъий қоида эмас. Аксинча, забардаст ҳофизлар ижро этган намуналарни назардан ўтказадиган бўлсак, улар матнлардан анча эркин фойдаланганлигининг гувоҳи бўламиз. Моҳир устозлар шеър бўғинларини қўшиб айтиш ёки ўзлари киритадиган товушлар ҳисобига 15-16 лик ғазалларни 13-14 бўғинли шаклда ва аксинча, мисраларни чўзиброк ижро этиб кетаверганлар.

Ғазал ўйнатиш, бутун ашула ёки унинг бир жумласининг ичидаги шеърий матнни турли вазнларга солиб айтиш, ягона усул жўрлигидаги куй лавҳаларида вазн алмаштиришdir. Демак, усул билан куй вазни мувофиқ келган жойларда бир хил муносабат, улар ажралиб, мустақиллашиб кетгандан эса бошқа вазият юзага келади.

Сўнгисида икки қатламли қўш вазн (полиритмия), яъни дойра усулида бир хил, куйда бошқа усул оқими пайдо бўлади. Бундай амаллар Хоразмда “қочирим” дейилади. Шу маънодаки, ашула йўлида дойра усулидан чекинган бошқа вазн юзага келади. Ҳожихон Болтаев, Қувондиқ Искандаров ижросида усулда қочирим қилиш ва

Рўзимат Жуманиёзов айтган ашулаларда усул ва нафасда (нафас олмасдан кейинги мисраларни ўқиши) қочирим турлари жуда кўп учрайди.

Юқорида келтирилган дойра усули билан бир қаторда “вазн ўйини”ни намойиш этиш қочирим турлари созанда ва хонанданинг юксак маҳоратидан далолат беради.

Хоразмда илгари машхур авлиёларнинг зиёратгоҳларида рўза ва курбон ҳайити кунларида, шунингдек, ражаб ва сафар ойларида катта сайиллар уюштириш одат қилинган. Катта сайиллар, шунингдек, кичик базмларда ҳофизлар орасида суворий айтишув (дийралишма)лари жуда ривож топган.

Маълумки, илгари замонларда ҳар бир созанда ёки гўянданнинг асосий касб-хунари бўлган. У пайтда санъаткорлик касб ҳисобланмаган. Энг етук санъаткорларнинг ҳам бири ҳаррот, бири мисгар, яна бири темирчи бўлган. Полвон Назир аканинг ўзи ва аждодлари туз конидан туз олиб келиб сотиш билан шуғулланганлар. Шунинг учун Полли тузчи, хоразмча “дузчи” лақаби билан танилган.

XX асрнинг 20-30-йилларигача суворий дийралишма (айтишув)ларида энг машхур ҳофиз гўяндалардан бири Полли дузчи бўлган. “Хива яқинидаги Дошёқ қишлоғи Кўзли бува деган авлиё атрофида “Бозоршап”да оқшомлари баъзан тонг отгунига қадар ашула айтиб шинавандаларнинг кўнгилларини хушнуд этган. Унинг овози Хива қаъласидан уч-тўрт чақирим узоқда бўлган “Гандимён” қишлоғида ҳам эшитилган экан”<sup>8</sup>.

XX асрнинг бошларида Хоразм қўшиқчилик санъатига кириб келган Куржи ота Авазматов, Мадраҳим Ёкубов (Шерозий), Ҳожихон Болтаев, Нурмуҳаммад Болтаевлар (дийралишиб) муҳлисларга беназир завқ берган. Бироқ 1930-40-йилларда улуғвор сувора йўлларини ижро этишни замон кўтартмади. Бу даврда суворалар асосан хослар даврасида, мусиқа ва шеърият муҳлисларининг нафис мажлисларида ижро этиб юрилган. 1960-80 йилларга келиб Ҳожихон мактаби давомчилари Қутлимурод Ҳожиев, Муҳамаджон Боғибеков, Сотим Авазов, Ўринбой Отажонов, Шариф Болтаев, Абдушариф Вафоев, Рўзимат Жуманиёзов, Искандар Пирматов, Қувондик Искандаров, Рауф Оллоберганов, Қаландар Матёкубов, Комилжон Отаниёзов ижро услубида Бекжон Отажонов, Матмурат Салаев, Қуранбой Ахмедов, Отажон Худойшукуров, Ортиқ Отажонов, Матназар Ниёзметов, Раҳимбой Кўчкаров, Йўлдош Худайберганов, Аҳмаджон Қурбонбоев, Ражаббой Жабборов, Оғабой Қурбонов каби ҳофизларимиз ўз репертуарларида сувораларни ижро килганлар. Бу устозларни жуда кўп ижро вариантиларидаги овоз ёзувларида бизгача этиб келган.

Суворалар Фарғона водийси, Тожикистонда кенг тарқалган бўлиб, Ўзбекистон халқ ҳофизлари Жўрахон Султанов, Маъмуржон Узоқов, Расулқори Мамадалиев, Ўзбекистон халқ артистлари Орифхон Ҳотамов, Таваккал Қодиров ва Тожикистон халқ ҳофизи Маъруфхўжа Баҳодировларнинг ижрочилик амалиётида ҳам кенг ўрин олган. Бу ҳофизлар ўзларидан олдин ўтган устозлар анъаналарини давом эттириб, анъанавий ижрочилик имизда ҳар

<sup>8</sup> Ўзбекистон халқ артисти М.Рахимов эсдаликларидан.



қайсилари бир-бирига ўхшамаган ажойиб ижро услублари яратганлар.

Эътикоди баланд сувора ижрочилик амалиётида машхур хонандалар томонидан қатор суворалар яратилган. “Коричмоний сувора” (Хожихон Болтаев), “Сувораи Комил” (Комилjon Отаниёзов)дан ташқари “Индамас сувора” (Кувондиқ Искандаров), “Ҳазорасп” сувораси (Искандар Пирматов), “Гўжайи сувора” (Озод Иброҳимов), “Ним парда сувора” (Раҳматжон Курбонов) деб номланган дурдона асарлар пайдо бўлди.

Сувора дийралишма санъатини эъзозлаб, сайқал бериб, халқ назарига тушган Ўзбекистон халқ ҳофизлари Рўзимат Жуманиёзов ва Кувондиқ Искандаров, Отамурод Ҳожиев ва Раҳматжон Курбонов, Озод Ибраҳимов ва Матназар Худойназаров, Рауф Оллоберганов ва Сойибжон Ниёзов, Ўзбекистон халқ ҳофизи Фарҳод Давлатов ва Комилjon Бобоҷонов, Жуманиёз Жуманиёзов, Худайберган Худайберганов, Самандар Худайберганов ва Азамат Отажоновлар республика ва вилоят телевидениялари орқали дийралишмалар қилиб устозлар анъаналарини давом эттирганлар. Бу айтишувлар дўстона ва самимий руҳда ўтган. Бир-бирига ракобат эмас, бир-бирини мулзам қилиш маъносида эмас, бир-бирларидан илҳом олиш, ўзларининг санъатини, иқтидорини кўрсатиб, ёнидаги ҳофиз ижодидан ҳам баҳраманд бўлиш, ундан нималарнидир илғаб олиш ва ўрганиш тарзида кечган. Бу анъаналар хозирда Ўзбекистон халқ ҳофизлари Сойибжон Ниёзов, Оролмирзо Сафаров, Ўлмас Оллоберганов, Самандар Худайберганов, Шокир Бобоҷонов, Ўзбекистон халқ артистлари ака ука Фоғуржон ва Ғуломжон Эшчоновлар, Шуҳрат

медиали сохиблари Азамат Отажонов ва Очилбек Матчонов, Шавкат Матёкубов, Қувондиқ Маткаримовлар давом эттиրмоқдалар.

## СУВОРАЛАР МУХЛИС ВА ШИНАВАНДАЛАР НАЗАРИДА

Созанда ва ҳофизнинг ижро этган куй ёки ашуласига баҳо берувчи тингловчи мухлис ёки шинаванда дейилади. Бунда биринчиси – соз санъатига ҳавас кўйган мухлис. Шинаванда куй ва ашулани идрокладиган, тушунадиган тингловчи. Шинаванда (тушунувчи) – мусика ҳакида маълум тушунчаларга эга бўлган ва унга нисбатан алоҳида ишқибозликни билдирувчи ўзига хос мухлисликни назарда тутади. Тарихдан маълумки, созанда ва ҳофиз санъатининг тараққиётида шинаванда-ишқибозлигининг аҳамияти муҳим ва эътиборлидир.

Хоразмда мақом ва сувора шинавандаларини ўзига хос анъаналари шаклланган. Бу ҳофизлик санъатининг тараққиётида муҳим ўрин тутган. Жонибек Эшчонов, Ниёзмат Матчонов, Аҳмаджон Юсупов, Аҳмаджон Собиров, Маркс Жуманиёзов, Телман Мусаев, Полвонназир Мадраҳимов, Отабой Рўзметов, Нодирбек Жуманиёзов, Хушнудбек Faффоров, Аҳмаджон Матчонов, Ганжабой Юсуповлар санъаткорларга ҳам ишқибозлик, ҳам ҳомийлик қилиб, соз базмларини бевосита иштирокчиси бўлиб, ҳофиз ёки созанда қаторида хаёлан ижод жараёнига қўшилиб, сўз матни, куйнинг оҳангиги, усули ва бошқа жиҳатларини онгли равишда назорат қилиб, завқ олиб, хузур қилиб ўтирганлар. Бугунги кунда вилоят телевиденияси орқали мунтазам равишда эфирга узатилиб

келинаётган “Сувора супаси” кўрсатуви учун ўз яшаш хонадони (ёзги айвонида) махсус жой қилган шинаванда Улугбек Исмоилов Сувора дийралишмаларини ёзиб олиш ишларига яқиндан ёрдам бериб келмоқда.

## СУВОРАМИ ЁКИ СУВОРИЙ?

Сувора ҳақида айрим манбаларда чалкаш фикрлар келтирилган. Уларда “Сувора (форсча “суворий” – отлик) – Хоразм мақомлари таркибидаги ашула йўллари деб ёзилган. Сувора сўзи “суворий” сўзидан келиб чиққанлиги бежиз эмас, чунки устозларнинг айтишича, Сувораларнинг ритм, доира усуслари отнинг оёқ товуши ҳолатидан олинган дейилади”.

Бугунги кунда Хоразм мақомоти тузилмаларини назарий ва амалий ўрганишда асосий манба “Танбур чизиги” ёзувлари ҳисобланади. Бу нодир манбада мақомлар тузилишида “сувора” деган сўз учрамайди. Бу ўринда “Суворий” деган ибора ишлатилган. “Суворий” 13 чоракли доира усулида ёзилган. Агарда юқоридаги маълумотларни “Суворий” усули билан таққослайдиган бўлсан, отнинг 4 оёғини товуш ҳолати қандай қилиб 13 чоракка тўғри келиши мумкин?

Хоразм мақомларининг айтим қисмидаги “Суворийлар” Тани мақом (Сарахбор)дан кейин эргашиб келадиган тароналардан бири. Таянч бўлган Тани мақом қисмига нисбатан карама-карши характердаги тарона қисмидан кейин келади. Суворийларда бошқа қисмларда учрамайдиган 13/4 (6/4 ва 7/4) вазн ўлчовлари кўлланилади.

Хулоса қилиб шуни айтиш керакки, “Сувора” алоҳида жанр, “Суворий” Хоразм олти ярим мақоми тузилмасида Тани мақом, тарона қисмларидан кейин (тарона ўрнида) келадиган қисм. Олти ярим мақом тузилмасида Ироқдан ташқари бешта (Рост, Наво, Бузрук, Дугоҳ ва Сегоҳ) мақомда “Суворий” қисмлари мавжуд. “Суворий” турқуми нафақат Хоразм услубида, балки Шашмақом таркибий қисмларининг кетма-кетлигига қузатилади.

Шундай қилиб, айтилган фикрларни умумлаштиrsак, анъаналар ворислиги уларнинг ҳаётийлиги билан ажralиб туради. Анъанани англаш ўтмишнинг такори эмас, балки мазмунли ижодий муносабат, унинг янги тарихий шароитларда ривожланиши бўлиб, бугунги кунда сувора қўшиқлари мисолида мумтоз ва анъанавий мусиқа ҳамда шеърий қадриятларга бўлган талаб бунинг ёрқин далилидир.

## СУВОРА ИЖРОЧИЛИК АНЪАНАЛАРИ УСТОЗЛАР МЕРОСИДА

Ўзбек қўшиқчилик санъатида алоҳида ўринга эга бўлган Суворалар ўз табиатига кўра авлоддан- авлодга оғзаки равишда ўтиб борадиган анъанавий мусиқа тоифасига мансуб. Анъана факат ўтмиш маҳсули, унинг гояси эмас, балки келажакни илҳомлантирувчи янги ўйл-йўриқларга, изчил ривожланишга замин яратувчи ҳолдир.

Сувора ижрочилиги ва унинг тараққиёти ўтмиш ютуқларига садоқат, янги уфқларга интилиш, мунтазам ҳаракатланиб ва ўзгариб турувчи ички зиддиятларига асосланади.

Санъатда устоз–шогирд муносабатлари бир томонлама ўтадиган оддий нарса эмас. Оғзаки мусиқа шароитида устоздан таълим олиш, унинг изидан эргашиб бевосита тажрибадан, ҳар бир алоҳида

вазиятда ўз қонунларини тақозо қиласынан ҳәтий мактаб. Айрим шогирдлар узок йиллар давомида устознинг панохидаги юриб маҳорат сирларини ўзлаштиради. Баъзан ёш санъаткор бирон устозни ўзига “йўлчи юлдуз” қилиб, унинг ижодини ўзи мустақил ўргана бошлади. Мөхир устозлар сувора ижрочилиги йўлидаги анъана риштаси узилмаслиги учун ўз санъатларини янги авлодга уқтириб, халқ меросига меҳр-муҳабbat уйғотиб келишган. Ушбу китобимизда сувора ижрочилик анъаналарини сақлаб келган устозлар ҳақидаги маълумотлар киритишни лозим топдик. Маълумотлар устозларни фарзандлари авлод-аждодлари ва шогирдлари ёзиг олинди.

**Қуржи ота Авазматов (1868-1940)** Хивада туғилган. У халқ орасида ашулачи ва дуторчи сифатида танилган. Хон саройида курувчилик қилган. Шу даврда хон саройидаги созандалар ва ҳофизлар ижросидаги куй ва қўшикларни эшлишиб, ўзи ҳам уларга тақлид қила бошлади. У Хоразм сувора туркумлари ижроиси-созанда сифатида танилди. Шерозий, Комилжон Отаниёзовлар унинг шогирдларидир.

**Полвон дузчи (1888-1940).** Халқ ичидаги Полли дузчи номи билан машҳур бўлган. Хоразм Сувора туркумларини мөхир ижроиси Полвон дузчи Хивада хунармандлар юрти бўлган Гандимён қишлоғида туз сотувчи оиласида дунёга келган. Хон саройининг атоқли ҳофизи бўлган. Шунингдек, ўз даврида суворахонлик маскани бўлган қаландархоналарда ашула айтиб эл назарига тушган. Ҳазорасплик Машрифжон пир ва бошқа уламолари давраларидағи суворахонлик анжуманларида ўз санъатини намойиш қилган. У Хивадаги Дошёқ қишлоғида жойлашган Кўзли бува деган авлиё

атрофида ўтказилган Бозори шаб (луғатда кеча, тун)да сувора дийралишмаларида қатнашган. Замондошларининг эслашига караганда бу айтишувлар тонг отгунига қадар давом этган.

**Мадраҳим Ёқубов** (таяхаллуси Шерозий – 1890-1973) Хивада туғилган. Хонанда ва созанда (дутор, гармон). Ўзбекистонда хизмат кўрсатган санъат арбоби (1949), Ўзбекистон Халқ артисти (1970). Куржи ота Авазматовдан дутор чалишни, Полвон дузчидан сувора йўлларини ўзлаштирган. Унинг ижросида илк бора 1932 йилда “Кажанг Сувора”, кейинчалик 1965 йилда Хоразм сувора туркумлари пластинкаларга ёзиг олинган.

**Ҳожихон Болтаев (1902-1987)** Хоразм вилоятининг Хонқа шаҳри ёнидаги Қоричмоний қишлоғида туғилган. Ёшлигига мусиқа ва шеъриятта катта ихлос кўйган. Ўзбекистон халқ артисти, Хоразм мақомчилик мактабининг етук намояндаси. Хоразм Сувора ижрочилик мактабининг асосчиси.

**Нурмуҳаммад (Нурмамат) Болтаев (1911-1974)** Ҳожихон Болтаевнинг укаси. Уларнинг қўшилиб ижро этган Сувора ашулалари ҳамнафаслик ижро услубининг энг кўркам намуналари қаторидан ўрин олган. Нурмуҳаммад Болтаев созанда сифатида мақомларнинг чолғу йўлларидан Мискин ва Ровийларни жуда мөхирлик билан ижро этган.

**Комилжон Отаниёзов (1917-1975)** машҳур ҳофиз, созанда, бастакор. Ўзбекистон, Туркманистон ва Қорақалпоғистон халқ артисти. Аввало, Хоразм достон йўллари, кейинчалик эса мумтоз ашулалар ижроиси ва сувора йўлларини ижодкори сифатида шуҳрат

қозонган. У яратган “Сувораи Комил” (VI сувора) ҳофизлар ижодида кенг ўрин олган.

**Кутлимурод Ҳожиев (1924-1996)** Урганч туманидаги Чакка шоликор қишлоғида туғилган. Ўн ёшлигидан Ҳожихон Болтаевга шогирдликка тушган. Хоразм Сувора туркумларининг моҳир ижрочиси бўлган.

**Абдушариф Вафоев (1925-1987)** Хивада туғилган. Мутлақ эшитиш қобилиятига, кучли хотирага эга бўлган ҳофиз. Кенг диапазонли, баланд авжли овози ва ижро услуби билан ажралиб турган. Фарғона-Тошкент мақом йўллари ва ашулаларининг Хоразмда асосий тарғиботчиларидан бири бўлган. Сувора туркумларини моҳирона ижро қиласкан.

**Матниёз Юсупов (1925-1992)** Урганч туманида туғилган. Композитор, созанда, хонанда, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган санъет арбоби. Хоразм мақомлари ва халқ мусиқа меросини ўзлаштирган. Унга Мадраҳим Ёқубов, Матфона Худойберганов, Комилjon Отаниёзовлар устозлик қилишган. Лирик хонанда. Хоразм мақоми намуналари, “Феруз”, “Сувора” туркумларини ижро этган. Хоразм халқ қўшиқ ва куйлари, мақом, суворалар, достон қўшиқларини тўплаб, нотага олган ва “Ўзбек халқ музикаси” тўпламини VI, VII ва IX жилдларида нашр эттирган.

**Сотимбой Авазов (1926-1999)** Хонқа туманидаги Мадир қишлоғида туғилган. Ҳожихон Болтаев ижро услубини давомчиси. У ижро этган Сувора йўллари санъат муҳлислари қалбидан кенг жой олган.

**Қувондиқ Искандаров (1930-2004)** Ҳазорасп туманида туғилган. Ўзбекистон халқ ҳофизи (1998). Ҳожихон Болтаев мактаби давомчиси. “Индамас Сувора” ижодкори. Сувора йўлларини моҳирона ижрочиси. Рўзимат Жуманиёзов, Ўринбой Отажонов ва Матназар Худайназаровлар билан бўлган дийралишмаларда қатнашган.

**Ўринбой Отажонов (1931-2001)** Хонқа туманидаги Хоразм қишлоғида туғилган. Кучли овоз имкониятига эга бўлган ҳофиз. Хоразм мақом йўллари ва Сувора ижро услубларини ёшларга ўргатиш мақсадида 1983 йили Хонқа туманида “Сарапаён гуллари” ансамблини ташкил қилиб, унга раҳбарлик қилган. Рўзимат Жуманиёзов, Қувондиқ Искандаровлар билан бир қанча марта Сувора дийралишмаларида бўлган.

**Рўзимат Жуманиёзов (1933-2001)** Урганч тумани Гайбу қишлоғида туғилган. Хонанда, Ўзбекистон халқ ҳофизи (1992). Хоразм мақом, сувора ва бошқа мумтоз ашула йўлларининг моҳир ижрочиси. Ҳожихон ва Нурмуҳаммад Болтаев ва Қулимурод Ҳожиевларнинг шогирди.

Кучли ва кенг диапазонли овоз соҳиби. Овоз имкониятларидан фойдаланиб Сувораларнинг авжларида икки-уч жумлани бир нафасда айтиш, усул ва куй қочиримларини моҳирона ўйнатиш Рўзимат устоз ижро услубига хосдир. Қувондиқ Искандаров, Ўринбой Отажонов ва Шариф Болтаевлар билан бир неча марта Сувора дийралишмаларида бўлиб, муҳлислар олқишига сазовор бўлган.

**Бекжон Отажонов (1937-1996)** Янгиарик туманида туғилган. Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист. Комилjon Отаниёзовнинг

шогирди. Хоразм мақомлари ва Сувора туркумлари, насиҳатомуз кўшиқларни ўзига хос услубда ижро этган. Ўзи ҳам ҳалқ кўшиқларига назира қилиб бир қанча кўшиқларни ижод қилган.

**Озод (Икром) Иброҳимов (1937-2007)** Хоразм эски классик куй ва ашулалининг пухта билимдони, моҳир созанда ва ҳофиз. Шерозий, Ҳожихон ва Нурмамат Болтаевлар, Комилжон Отаниёзов, Каримжон Исмоилов ижро мактабининг давомчиси. Мақом ва сувора йўлларининг ички мантиқи, куй тузилиш тартиблари, парда ва усулларини яхши мутолаа қилган. О.Иброҳимов томонидан 2004 йил “Саҳиҳ Суворийлар” ўқув кўлламаси яратилган.

**Шариф Болтаев (1940-1995)** Урганч туманида туғилган. Комилжон Отаниёзов мактабининг давомчиси. Кенг овоз диапазонга эга бўлган ҳофиз. Хоразм мақомлари ва Сувора ва Феруз туркумларини ўзига хос услубда ижро этган. Таникли ҳофизлар Ўринбой Отажонов ва Кувондиқ Искандаровлар билан бўлган дийралишмаларда қатнашган.

**Қуранбай Аҳмедов (1942-2019)** Урганч туманидаги Беговот қишлоғида туғилган. Комилжон Отаниёзов ижро мактабининг давомчиси сифатида санъат соҳасига кириб келган. Хоразм мақомлари, Сувора ва Феруз туркумларини устози Комилжон Отаниёзов услубида ижро этган.

**Отажон Худойшукоров (1944-1994).** Забардаст ҳофиз Тўрткўл туманида туғилган. Ўзбекистон, Қорақалпоғистон, Туркманистон ва Татаристон ҳалқ артисти. Ашула айтишни амакиси хонанда Йўлдош Оллошукоровдан ўрганган. Кейинги устозлари К.Отаниёзов, Назир қори, Ж.Бекчонов ва бошқалар бўлган.

Жозибали, чиройли тембрли, кенг, барча пардаларда равон ва жарангдор овоз соҳиби. У ижро этган мақом ва сувора йўллари тингловчилар қалбидан чуқур жой эгаллаган. Замонавий услубда ижро қилган кўшиқлари эҳтирос, шижаот ва жўшкинлик, мазмуний теранлик каби ҳислатлар билан бошқа ҳофизлар ижроларидан ажралиб турган.

**Фарҳод Давлатов** 1958 йилда Хивада туғилган. Ўзбекистон ҳалқ ҳофизи. Ҳозирги кунда Хоразм мақомлари ва сувора йўлларини маҳорат билан ижро этиб келаётган навқирон устозлардан. Ўзбекистон ҳалқ ҳофизи Рўзимат Жуманиёзов ва Озод Иброҳимовлардан сабоқ олиб, мақом ва сувора ижрочилигининг нозик томонларини ўзлаштирган. Ўзбекистон, Қорақалпоғистон, Туркманистон ва Татаристон ҳалқ артисти Отажон Худайшукоров ижод мактабининг давомчиси сифатида катта давраларда микрофон ёки товуш кучайтиргич ускуналарисиз соатлаб ашула айтиш тажрибасида чиникиб олган.

**Рахматжон Қурбонов (1959-2021)** Хивада туғилган. Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист. Ноёб овоз ва истеъод соҳиби, кенг овоз диапазонига эга бўлган. Комилжон Отаниёзов мактаби издоши. Ижро дастурида Хоразм ва Фарғона – Тошкент мақом йўллари, катта ашула ва суворалар кенг ўрин олган. Хоразм Сувора туркумларига назира қилиб “Ним парда Сувора”ни яратган. Бу асар янги мумтоз ижролар сифатида муҳлислар эътиборини қозонган.

**Азамат Отажонов** 1969-йилда Урганч шаҳрида санъаткор оиласида туғилган. “Дўстлик” ордени соҳиби. Шашмақом ва Хоразм

олти ярим мақоми, сувора йўлларини куйлашда ўзига хос ижро услуби билан халқ орасида танилган хушовоз хонанда.

Кўшиқчилик санъатида дастлабки устози – отаси Бекчон Отажонов ҳисобланади. Консерваториядаги талабалик йилларида Ўрта Осиё мақомчилар кўрик-танловининг мутлоқ ғолиби бўлган.

Хозирда Урганч ихтисослаштирилган мақом санъати мактаб-интернати директори лавозимида фаолият юритмоқда.

**Очилбек Матчонов** 1979 йилда Хива шаҳрида туғилган. Кучли овоз, ўзига хос ижро услубига эга бўлган хонанда. “Дўстлик” ордени соҳиби. Бир қатор республика ва халқаро кўрик-танловлар ғолиби.

Хонандалик мутахассислиги бўйича Мадраҳим Ёқубов, Отабой кори Холлиев, Бахтиёр кори Султонов, Рустам Болтаев, Азамат Отажоновлардан, консерваторияда ўқиш жараённида М.Худойназаров, Ж.Набиев, О.Иброҳимов, М.Тожибоевлардан таълим олган.

Хозирги кунда Урганч давлат университети “Санъат” кафедрасида фаолият юритмоқда.

### УСТОЗЛАР УСТОЗЛАРИ ҲАҚИДА

*Мадраҳим Шерозийнинг невараси Зокиржон Мадраҳимов,  
Урганч давлат университети ўқитувчиси*

Мадраҳим Шерозий устозлари Полвонниёз ҳофиз (Полли дузчи) ва Куржи Авазматов (Куржи ота)лардан сувораларни ўргангандан сувораларнинг савтларига ўзининг ижоди билан муносиб хисса кўшган.

М.Шерозий 1932 йилда Тошкентда Мулла Тўйчи ҳофиз билан учрашиб, у кишининг боғида меҳмон бўлади (шу даврнинг забардаст ҳофизлари билан учрашган). Учрашувда навбат М.Шерозийга келганда М.Шерозий “Як парда сувора”ни тушириш билан мохирона ижро килади. Даврадошлари М.Шерозийга суворани радио орқали ижро қилишларини таклиф киладилар. Шерозий бу таклифни бажонидил қабул қилади. У пайтлари магнит лентасига ёзиб олиш бўлмаган, шунинг учун эрта тонгда радиоузелга бориб микрофон олдида жонли суворани ижро қилган. Мана шу кун М.Шерозий учун тарихий кун ҳисобланган, чунки Хоразм суворалари 1932 йил август ойида радио тўлқинлари орқали бутун Ўзбекистонга таралган. Шундан кейин Мулла Тўйчи ҳофиз ташаббуси билан сувораларни грампластинкага ҳам ёзиб олганлар. Пластинкалар бизнинг шахсий архивимизда сақланмоқда.

Отам Отаназар Мадраҳимов Урганчда бўлиб ўтган бир дийралишмани шундай гапириб бердилар. 30 йилларда Ибодулла хивалик деган одам тўйига Хивадан М.Шерозийни, Хонқадан Ҳожихон Болтаевни хизмат учун таклиф киладилар. У пайтларда ҳофизлар фақат курга чиққанларида бир-бирини кўришган. Ҳақиқий дийралишма мана шу тўйда бўлган.

Бир томонда Шерозийнинг муҳлислари, яна бир томонда Ҳожихоннинг муҳлислари жойлашиб оладилар. Дийралишмада иккала забардаст санъаткор ҳақиқий олишув қиладилар.

Ғазал кетидан ғазал, бири олиб бири кўяди, авжларни айтмайсизми, курни ларзага келтирадиган даражада. Қисқаси мен сўз билан ифодалашим қийин бу дийралишмани. Муҳлислар шу

даражада берилиб ўтиридиларки, ҳатто тонг ёришганини ҳам сезмай қолдилар. М.Шерозийнинг муҳлислари жуда кўп бўлган, шулардан биттаси жуда ашаддий муҳлис бўлган. У тўйга боришдан олдин тўрт, беш кўйлакни устма-уст кийиб олар экан ва суворанинг хар бир авжида ички ҳиссиётини ичига сиғдира олмасдан “дод”, деб кўйлагини йирттар экан. Қисқаси суворанинг охирги авжида муҳлиснинг сўнгги кўйлаги йиртилар экан, деб ҳикоя килиб берганди.

1965 йилда Хоразм санъаткорларининг ҳонишларини грампластиникага ёзиш учун Тошкентдан Хоразмга бир гурух мутахассислар келадилар. Пластиникага ёзиш учун М.Шерозий ҳам таклиф килинади. М.Шерозий шу вақтда 75 ёшни қаршилаган пайти. Пластиникага Шерозий ижросида “Якпарда сувора”, “Чапандози сувора”, “Кажҳанг сувора” ва бошқа қўшиклари ҳам ёзиб олиниади.

Кажҳанг суворанинг юқори авжини, яъни 3 октава ре нотасига чиққанларида пластиникага ёзувчи мутахассислар ҳайратда колганлар ва М.Шерозийнинг олдиларига келиб, Шерозий ота сизга катта раҳмат. Сиз шу ёшда юқори пардада шундай авж нолалар килдингизки, биз ҳайратда қолдик, деб ўз миннадорчилигини билдирганлар.

1967 йилда Комилjon Отаниёзовнинг 50 йиллик юбилейи ўтказилди. Юбилейда М.Шерозий ҳам қатнашди, Комилjon акага дутор совға қилиб сувора йўлидан хиргойи қилдилар: “Олиб бу дуторни қўлга, ҳар дам мани ёд эт”.

Шерозийнинг бу хиргойисидан Комилjon ака ҳам, залда ўтирганлар ҳам, ҳатто телевизор кўриб ўтирганлар ҳам таъсирланиб кўзига ёш олганлар.

Юбилей тантанасидан кейин Шерозий ота билан К.Отаниёзов телестудияда айтишув қилганлар. У пайтларда видеога ёзиш йўқ эди, жонли эфирда чиқилар эди. Тошкентда иккала забардаст санъаткор сувораларни ижро қилиб томошибинларни олқишига сазовор бўлганлар.

Самандар Худайберганов,  
Урганч давлат университети профессори

Ўзбекистон халқ ҳофизи, устозим Рўзимат Жуманиёзов Хоразмнинг мақом, сувора ва бошқа мумтоз ашула йўлларининг моҳир ижрочиси, кучли ва кенг диапазонли овоз соҳиби бўлган. Торни танбур услубида чалиб айтишга одатланган. Овоз имкониятларидан фойдаланиб йирик авжларда икки-уч жумлани бир нафасда айтиш, усул ва куй қочиримларини моҳирона ўйнатиш Рўзимат устоз ижро услугига хос эди. 1988-йилдан Хоразм вилояти телевидение ва радио кўмитаси қошида ташкил этилган “Мақом” ансамблида устоз билан бир қанча йиллар бирга ишладим. 2004-йилда устоз ижро репертуари асосида унинг ижодига бағишиланган “Дастингдан” деб номланган ўкув қўлланмасини тайёрлаб чоп қилдирдим.

Рўзимат Устоз-устози Ҳожихон Болтаевга берган ваъдаларини магнит тасмаларига ёздириб қолдирмасам рози эмасман, деб васият

қилганини ўзларидан бир неча бор эшитганмиз. 1989-йилда Республика радио ва телевидениесининг 13-студиясида таникли овоз режиссёри Наби ака раҳбарлигида устоз берган ваъдаларини бажариш мақсадида ўзи “Рост”, “Бузрук”, “Наво”, “Дугоҳ”, “Сегоҳ” мақомини айтим йўлларига тушдилар. Рўзимат устоз ҳаяжонланиб, хурсанд бўлиб: “энди ўлсан армоним йўқ”, “мен Ҳожихон устага берган ваъдамни бажардим”, деб кўзида ёш билан дуо қилгандари ҳали ҳамон кўз олдимда.

Устозни Қувондиқ Искандаров, Ўринбой Отажонов, Абдушариф Вафоев, Бекжон Отажоновлар билан сувора дийралишмаларида ёнида дутор чалиб қатнашганман.

Ҳофизни ёнларида юрган пайтларим буларни оддий айтишув, деб юрган эканман. Мана анча ийллар ўтиб Рўзимат аканинг жуда забардаст, сувораларнинг асл ижрочиси Ҳожихон устоздан кейинги кучли, ноёб ижрочи эканини тушуниб етаяпмиз. Мақомлардан сўраб савол берадиган бўлсак дарҳол, тезда ўйламасдан айтиб, ижро қилиб, қайта-қайта такрорлаб ўргатардилар. Саволларимиздан хурсанд бўлиб, севиниб, ҳар бир шогирдига ҳам ана шундай жуда яхши муомила билан айтиб берар эдилар. Ҳақиқий мақомларнинг фидойи, жонкуяр устози эдилар. Аллоҳ раҳмат қилсин, жойлари жаннатдан бўлсин!

Рустам Болтаев,

Урганч давлат университети доценти,  
Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори

Ўзбекистон халқ ҳофизи Қувондиқ Искандаров билан бир қанча давраларда бўлиб ёнларида дойра чалганман. Устоз “Феруз 1, 2”, “Сегоҳ”, “Дугоҳ”, “Оразибом”, “Катта Сувора”, “Чапандози Сувора”, Фарғона-Тошкент йўлларидан “Танавор 1”, “Гиря 1, 2” ва бошқа мумтоз ашулаларни мохирона ижро қиласар эди. Ёқимли, барча регистрларда жарангдор ва жозибали овоз соҳиби бўлган. У ўзбек мумтоз ашулачилик анъаналарига таяниб ўзига хос ижро йўлини яратган. Услуби шижоат ва жўшқинлиги, айниқса сувораларни ижро қилганида усул ўйнатишлари билан ажralиб турар эди.

Қутлимурод Ҳожиев

Устоз Ҳожихон Болтаев ҳақида қанча гапирса ҳам ҳамиша оз. Мен 1939- йилда 16-17 ёшларимда устозга шогирдикка тушдим. Кейинчалик театрда, эстрадада бирга ишлаб, темирийл қурилишларида устоз билан хизматта бўлдим. Мен устозни отам деб хисоблайман.

Устозни шогирдлари кўп. Ҳожихон устоздан фойдаланмаган санъаткор йўқ. Ҳақиқий шогирди мен (Қутлимурод Ҳожиев), Сотимбой Авазов, Қувондиқ Искандаров, Ўринбой Отажонов.

Рўзимат Жуманиёзов мани шогирдим. Ман Рўзимат Жуманиязов учун мактаб бўлганман, Ҳожихон устоз Институт бўлган.

Қувондиқ Искандаров,  
Ўзбекистон халқ ҳофизи

Устоз Ҳожихон Болтаевдек ашулачи-ҳофиз бизнинг Ўзбекистонда, Ўрта Осиёда бўлмаган. Нега десангиз 65-70 йил ашула айтган одамни ҳеч қачон эшитмаганмиз. Устоз ашулачиларнинг “Қироли” бўлган. Мен устозни 8-10 соатлаб ашула айтган вақтларини гувоҳи бўлганман.

*Рўзимат Жуманиёзов  
Ўзбекистон халқ ҳофизи*

Устознинг бир орзулари бор эди. Бу мақомларимизни пластинкага тушиш. Устоз: “энди мен чарчадим, қаридим, сизлар шу мақомларни радиога тушинг, пластинкага тушинг сизлардан илтимосим”, деб бизга топширган эди. Шунинг учун биз устоз орзусини амалга ошириш учун Радио қошида мақом ансамблини туздик ва мақомларимизни ёзиб олдик.

## XORAZM SUVORA IJROCHILIK MAKTABINING ZABARDAST HOFIZLARI





## **BOTIR RAXIMOV**

### **XORAZMNING SUVORA TURKUMLARI (Uslubiy qo'llanma)**

## SUVORALAR XORAZMNING MA'NAVIY ASHULALARI

Ma'lumki, Xorazm So'g'd va Baqtriya davlatlari kabi Markaziy Osiyodagi eng qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biridir. Sharq va G'arjni bog'lovchi Buyuk Ipak yo'li xaritasiga nazar tashlasangiz, xozirgi kunda ham zamonaviy madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lgan Urganch, Xiva, Buxoro, Samarcand, Toshkent va Termiz shaharlarini ko'rishimiz mumkin.

Markazlarning tarixi va madaniyati haqida kitoblar yozilgan, filmlar suratga olingan. Bugungi kunda bu shaharlar antik davrni sevuvchilarining nigohi tikilgan sayyoqlik markazlari hisoblanadi. Bu markazlarda saqlangan ma'lumotlar va hikoyalar O'zbekistonning betakror go'zalligini his qilishni istaganlar uchun juda muhim. Shu bilan birga qal'alar devorlari ortida, qadimiy yodgorliklar labirintlarida jahon jamoatchiligini tobora o'ziga jalb etayotgan she'riy, musiqiy va xoreografik sirlarning ochilmagan ko'plab tugunlari saqlanib qolgan. Bulardan tashqari, juda ko'plab musiqiy va she'riy an'analar mavjud. Biroq, shu bilan birga ular ilmiy va etnografik nuqtayi nazardan kam o'rganilgan. Xorazm vohasi hududida mavjud bo'lgan suvora ashulalari ana shunday noyob musiqiy va she'riy yodgorliklar qatoriga kiradi.

So'z va soz san'ati – she'riyat, bir-biri bilan chambarchas bog'liq holatda asrlar davomida rivojlanib, bu ikkala san'at ma'naviy qadriyat sifatida tushinilgan va xalqimiz tomonidan e'zozlanib kelingan. Bozorlarda, katta-katta yig'in, xalq sayillari va bayramlarda she'riyat va musiqa odamlarning ko'nglini ovlaydigan yagona vosita bo'lgan. Insonlar quvonchli kunnarda, to'y-tomoshalarda turli ko'rinishdagi raqslarga tushib, o'zlarining to'lib-toshgan ichki zavqlarini chiqarib olishgan.

Tasavvufning buyuk namoyandalari mushtarak bo'lgan so'z (she'riyat) va soz san'atidan bahramand bo'lishlari uchun tariqat ilmiga "samo'" tushunchasini kiritganlar.

Samo' (yoki siymo) "eshitish" ma'nosida bo'lib, zikr va ilohiyotga sho'ng'ish asnosida mashshoqlar tomonidan kuyylanib turiladigan ashulalarga nisbatan ham aytilgan. Zikr majlislari aytimlariga nazira qilib yaratilgan ashulalar Farg'onada "Katta ashula", Buxoroda "Xonaqoi", Xorazmda esa "Suvora" deb nomlangan. Ilohiy zikrlarga xos mayin nolasifat harakatlarda ijro qilingan raqslar "Lazgi" va "Orazibom" deb nomlangan. Bu qo'shiq va raqslar ijrolari bizning davrimizgacha urfiy yo'il bilan yetib kelgan.

"Suvora" xalq og'zaki ijodida qo'llanilgan tushuncha bo'lib, etimologik jihatdan hodisaning tashqi, rasmiy tomonini bildiradi. Suvora (sur'at) so'zining o'zagi so'fiylik marosimlaridagi sirli xususiyatiga ega bo'lgan ruhiy ashulalarning tashqi tomonini anglatgan. An'anaga ko'ra, ular darveshlar tomonidan xonaqo yoki qalandarxonalarda bo'lgan so'fiy zikrlarida aytilgan.

O'tgan asrning 20-yillarigacha suvoralar so'fiy, darvesh va qalandarlarning yashirin yig'inlarida ijro etilgan. Marosimlarning turidan qat'iy nazar muxlislar tomonidan suvora ashulalariga muqaddas so'zlarni o'qish talab qilingan. Suvora ijrochiligidagi she'riyatga, ashula aytishga va musiqa chalishga bo'lgan muhabbat hozirgi davr ijro an'analarida ham saqlanib qolgan.

Suvoraning tarixiy ildizlari XV asrda Hirotda Alisher Navoiy davridagi sirli so'fiya (so'fiy) deb atalgan ruhiy ashulalarga borib taqaladi. Navoiy davrida tasavvufiy aytimlar "sufiya" deyilgan. Xorazmda esa

“suvora” nomini olgan. Navoiy davrida badiiy asarning ichki mazmuni “siyg‘a”, tashqi shakli “suvrat” deb atalgan. Xorazm tasavvufiy aytimlari amaliyotida uni “suvora” deyishlik rasm bo‘lib ketgan.

Bu ashulalarda hodisaning mohiyati, Allohga bo‘lgan muhabbat, qalbning unga bo‘lgan xohishi, vositachilarsiz buyuk Ruhga so‘z va musiqa orqali qalbning tortishish kuchi ifodalangan.

Bu turdagи ashulalar Sharqda islom dini tarqalishining birinchi yuz yilligidan boshlab ma’lum bo‘lgan. Bunday ashulalar ijrochilar uchun islom arboblari tomonidan keng ommaga tarqatilgan va hatto ba’zi imtiyozlardan bahramand bo‘lgan.

Buyuk islom ulamolari musiqani inson ruhiy olamiga ta’sirini anglagan holda uning inson tarbiyasidagi o‘rnii haqida asarlar bitishgan. Lekin diniy tizim qarshiligi tufayli ma’lum davrlarda ta’qiqlashlar ham bo‘lgan.

Suvoralarni asoslari qalandarxonalarda shakllana boshlagan. Islomda esa asosan jamoatni ibodatga chaqirishda muazzinning go‘zal ohanglik ovozi bilan azon chaqirishda qo‘llanib kelingan hamda ahli tariqat yig‘inlarida musiqa ohanglari va usullari vositasida zikr suhbatlari bo‘lgan.

“Xorazmda qalandarxonalardagi islomiy ruhga bo‘ysungan holda darveshlar aytimiga nazira sifatida Polvon duzchi tomonidan Suvora turkumlari yaratilgan”. Suvoralarga o‘qiladigan so‘z matnlarida, shariat odob qoidalaridan chiqib ketmaslik sharti bilan so‘z tanlaganlar. Asta sekinlik bilan suvora ijrochiligi hofizlar dasturida ommalasha boshlagan. Hofiz va xonandalar ijro etgan har bir Suvora yo‘lini xalq tan olgan. O‘z ijrolarida yurtning mashhur shoirlarining so‘zlaridan tanlab, shu orqali ular go‘yanda, suvorachi deb muxlislar orasida e’zozlangan. Bu uslubdagi

ijrochilarni shahar va chekka qishloqlarda yaxshi kutib olganlar. Suvora ashulalarining ijro uslublari kundalik hayotimizda, xozirgi vaqtida ham saqlanib kelinmoqda.

Xorazmda ana shunday ma’naviyatparvar, ma’rifat kuychilari alohida ajralib suvorachi degan nom olganlar. Ular suvora ijrolarida Allohga hamd, Payg‘ambarimizga durudlar aytib, xalqqa ma’qul bo‘lgan, yaxshilikka da’vat etadigan nasihatmuz muxammaslarni tanlangan. Xalq ham, diniy rahnamolar ham ularning ijrolaridagi nazmiy matnlarga e’tibor berishga o‘rganishgan.

Suvoralar mumtoz musiqaning boshqa janrlariga nisbatan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turgan. Avvalo, bu janrning ko‘p qirraliligi. Bir tomondan, so‘zлari ochiq mavzuda o‘qiladigan she’riyatning bir turi. Unda asosiy mavzu – Xudoga bo‘lgan muhabbat, uning mahfiyligi, benuqsonligi, shu bilan birga, soddaligi, samimiyligi, insonning ichki do‘sti ekanligi kuylangan. Bu g‘oyalarni barchasi suvoralarning poetik asosi bo‘lib xizmat qiladigan she’riyatga singib ketgan. Suvoraning samimiyligi, sahovathi musiqiy ohanglari ham bunga mos keladi. Inson ovozi, suvora ijrochiligidagi asosiy musiqiy vosita va mukammal musiqiy omil hisoblanadi. Shuning uchun ham, ovoz yetakchi bo‘lib, cholg‘u asbobi hofiz uchun yordamchi vazifani bajaradi.

Suvora ijrochiligi o‘tmishda mumtoz musiqamizning boshqa janrlaridan jamoaviy qo‘sishq aytish ya’ni, ikki yoki uchta qo‘sishchini muvofiqlashtirish, jo‘rnavorozlik va hamnafaslik uslubi bilan ajralib turgan, lekin Yevropa musiqasidagi xor polifoniyasiga o‘xshamaydi. Jamoaviy ijrolar bir-biriga yordam bergen. Bu ijrolar inson ovozining cheklangan

jismoniy (nafas olish) va vokal imkoniyatlari (diapazoni) sharoitida yordamchi, qo'shimcha sifatida ishlatalidi.

Suvorani jamoaviy kuylash o'z-o'zidan boshlang'ich xususiyatga ega emas. Bu kelishuv va uyg'unlikka asoslangan yuksak professional san'atdir. Suvora xonandalari uzoq yillik nazariy va amaliy faoliyat natijasida shunday darajaga yoki mahoratga erishganlar. Amalda suvorachilar guruhi "hamnafaslik" deb atalgan.

Suvora ijrochiligidagi bitta, ikkita (kamdan-kam hollarda uchta) ijrochi birgalik chiqishadi. Bunday ijroning xususiyatidan musiqiy va uslubiy barqarorlik kelib chiqadi. Bu "an'anaviylik" uslubi musiqiy va ifodali xususiyatlarni bir so'z bilan belgilaydigan narsa.

Bugungi kunda turli mamlakatlar olimlari janr va shakllarning qiyosiy tavsifi bilan shug'ullanar ekan, ularni odatda uchta asosiy yo'nalishga: klassik, an'anaviy va zamonaviyga ajratib, ularni umumiy deb atashadi. Masalan, 2022-yil 8-iyun kuni Toshkent shahrida "Zamonaviy musiqa ta'limi va ilm-fanini rivojlantirish muammolari" mavzusiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada bo'lib o'tgan SHHT (SHOS)ga a'zo davlatlar musiqa oliy o'quv yurtlari rektorlarining deklaratasiyasida ham shunday tasnif mavjud edi.

Fitrat o'zbek musiqasining akademik janr va shakllariga bag'ishlangan birinchi kitobini "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" deb ataydi. Ushbu kitob o'zbek musiqasi nazariy asosining birligini bayon qilish va tavsiflash bilan boshlanadi. U mumtoz (akademik) musiqa va she'riyatning birligi yuksak darajaga ko'tarilgan bu hodisaning nazariy asosi sifatida Alisher Navoiy ijodiy merosini ko'radi.

An'anaviy she'riyat va musiqa san'atining yuksak toifasi haqida gapiradigan bo'lsak, "Suvora"ning ma'naviy ashulalarini yaqqol misol qilib keltirish mumkin. O'zbekistonning turli hududlarida musiqiy va she'riy ijodning bunday turi amalda turlicha nomlanadi: Xorazmda "Suvora", Farg'ona vodiysida "Katta ashula", Buxoroda "Xonaqoi". Aslini olganda suvora, xonaqoij, katta ashulalarning zoti bir: "Vahdat" u "Vujud" bilan ruhiy zavq olami o'rtasidagi holatlarni adabiy-musiqiy ifodasi. Ularning tashqi belgilari (nomlanishlari) turlicha bo'lsada, ammo mohiyati "Oliy Ruh" oldidagi ruhga o'xshaydi.

Musiqiy va she'riy xususiyatlari ko'ra Suvora, Katta ashula va Xonaqoi o'rtasida ham umumiy jihatlar ko'p. Til va musiqiy ifodali xususiyatlarda ham ko'plab o'xshashliklar mavjud.

An'anaviy qo'shiqlarning bu jihatini klassik va zamonaviy uslublar o'rtasidagi o'rta bo'g'in sifatida ko'rish mumkin. Darhaqiqat, suvoraning musiqiy tuzilishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda mumtoz maqomlar bilan ko'plab o'xshashliklarni, hatto ba'zi so'z birikmalarini bir xillilagini uchratish mumkin. Masalan, maqomlarning shakllarini tuzilishida uchta tayanch nuqtasini mavjud: tani maqom (sarahbor), nasr (yon qismlari) va yakunlovchi – ufarlar. Xuddi shu shakl suvoralarda: Ona suvora (Dastlabki suvora), Chapandozi suvora (yon qismi) va Savti suvoraning chekka qismlaridan iborat.

Suvora turkumi beshta asosiy tayanch qismlar: Katta (Ona) suvora, Xush parda suvora, Kajhang suvora, Chapandozi suvora, Yak parda suvora hamda ularga ergashgan kichikroq shakldagi Savti suvoralarni o'z ichiga oladi. Katta suvora Ona suvora ham deyiladi va mazmuniga ko'ra

Shashmaqom Saraxborlari va Olti yarim maqomning Tani Maqomlariga to‘g‘ri keladi.

Maqom va suvora yo‘llari aslida soz va so‘z mushtarakligining oliy namunasi. Shuning uchun ham suvora ijro etuvchi hofizlar odatda she’riyat bilimdonlari ham bo‘lganlar.

Xorazm suvora yo‘llarida “Chapandozi suvora” atamasi mavjud. Shashmaqom va Olti yarim maqom tizimida “Chapandoz” usulning nomi. Chapandozi suvorada bu ibora usuldan ko‘ra ko‘proq kuy yo‘liga tegishli nisbatda ishlatalidi.

Suvora va maqom ijrochilik an‘analarida tashqi ko‘rinishdan ko‘plab o‘xshashliklar mavjud. Masalan, improvizatsiya (badihago‘ylik), maqomlarda yashirin bo‘lsa, suvoralarda ijro mahorati va badiiy barkamolligiga bog‘liq. Ruhiy madhiyalarda bu on aniq, ochiq xarakterga ega. Maqom uslublarida ikki ijrochining birgalikda kuylashi “hamnafaslik” deb atalsa, suvorada “diyralishma” (qarama-qarshi raqobat) deb ta’riflanadi. Suvora janrining tuzilmasi avji ichida baland avjlarni qilish bilan maqomlar yo‘lidagi avjlardan farq qiladi. Ozod Ibrohimovning “Sahih suvoriylar” kitobida bu ko‘rinishdagi avj quyidagicha bayon etilgan: “Suvoriy bosh bo‘g‘imi tonligi tamom bo‘lgan joyda turib to‘rt parda yuqoridaq avj (hang) qilganlar. Bu antiqa avjning nomi “Dastgiri fano” deb ataladi”. Bu avj suvora ijrochilarini tomonidan “Alloh o‘z panohingda asra” kalimasini aytib ijro qilingan.

“Dastgiri fano” avjini ayrim ustozlar 5 xonadan, ba’zilari esa 6 xonadan keyin ijro qilgan. Avjda (O-O-O deb) ohang ijro qilinib, “Dastgiri fano” so‘zini qo‘shib aytganlar.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Rahmatjon Qurbanov “San’atning sirli olami” kitobida asosiy beshta suvora va ustozlar tomonidan ijod qilingan suvoralarni tuzilishi, nomlanishini tahlil qilib o‘tgan.

O‘tgan asrda yashab ijod etgan va o‘z san’ati bilan xalqning e’tiborini tortgan, hurmat va ixlosiga sazovor bo‘lgan Xorazm suvora ijrochilik an‘analarini biz davrimizgacha saqlagan Polli duzchining shogirdlaridan biri Qurji ota Avazmatov, Madrahim Sheroziy, Qalandar ota Yoqubov (xalq orasida laqabi “Bangi”) va Hojixon Boltayevlar bo‘lgan. Bu hofizlar qo‘lida dutor bilan suvoralarni faqat tayanch pardalarini (kuyni chalmasdan) chertib, asosiy e’tiborni hofiz ovoziga berib ijro qilishgan.

Polli duzchi maktabidan ta’lim olgan Hojixon usta suvoralarni yangi bir ijro uslubini yaratgan. U avval diniy ilmlarni, e’tiqodni o‘z davrining mo‘tabar piri murshididan puxta ta’lim olgandan so‘ng xalqni ma’rifatga chorlashni suvoraxonlik ila olib borish uslubini tanlagan.

Hojixon ota umrining eng yetuk pallasi Sho‘rolar tuzumi davriga to‘g‘ri keldi. Bu tuzum suvoriylar u yoqda tursin, uning nazmiy matnlarini ham qatag‘on qilgan edi. Hojixon ota o‘tib ketgan ustozlari izidan borib, suvoriylarda ilohiy aytimlar aytib yurgan. Shu orqali xalqni iymone-tiqodli qilish yo‘lida o‘zining imkoniyati doirasida holis xizmatlar qilgan. Uning ijrosidagi suvoralarda madhu sanolar yangragan.

Maqomdon ustoz yoshligidan etikdo‘zlik hunarini o‘rganish bilan bir qatorda diniy e’tiqodga, xususan, tasavvufiy g‘oyalarga katta ixlos qo‘ydi. Suvoriy yo‘lida aytildigan g‘azal va muxammaslarning ayrim baytlarini qayta-qayta takrorlab, ularning mag‘zini chaqishga va ta’rif etilayotgan

tuyg'ular girdobida yurdi. Ayrim she'rlarni kuyga solib, o'zicha hirgoyi qilishga intildi. Kunlarning birida xazoraslik taniqli tasavvuf peshvosi Masharipjon (Muhammad Sharif) Pir Xonqaga kelib qolganda Sayyid Ota qadamgohidagi xonaqoda uning atrofida ibodat va muloqotlar o'tkazildi. Ana shunday nafis majlislardan birida kichik Savti suvoralardan aytgan yosh Hojixon va Nurmuhammadlar Masharipjon Pir nazariga tushib qoldi. Yosh yigitlarning nafosatli iste'dodidan ta'sirlangan ulug' zot san'at yo'lida halol xizmat qilishga oq fotixa berdi. Bu marosim, o'z farzandining hofiz bo'lishini uncha xush ko'rmay yurgan Hojixonning otasi uchun ham hal qiluvchi voqeа bo'ldi. Pir duosidan so'ng otalari ham rozilik berdilar. Hojixonning o'zi esa butun vujudini hofizlik san'atiga, ukasi Nurmuhammad esa hofizlik va sozandalichilikka baxshida etishga qat'iy bel bog'ladi.

Keyinchalik hayot tajribasining o'zi maqomparastlik va suvoriyxonlik muhiti – e'tiqodi baland bo'lgan hofizga ustozlik qildi. Har bir yetuk san'atkor bilan bo'lgan muloqot unga hofizlik va sozandalik ilmining yangi qirralarini ochib boraverdi.

20-yillar oxiri – 30 yillar boshlarida Hojixon katta san'at yo'liga yosh kuch sifatida dadil kirib kelayotgan paytlarda xos maqom urf-odatlarida kamol topgan nomdor ustozlar hali hayot edi: bular tanburchi Matyoqub Xarrot, benazir shoir va sozanda Komil Devoni, g'ijjakchi Otajon Abdullo o'g'li (Devon bobo), tanburchi va hofiz Razzoqbergan Omonov, suvoriyxon-go'yanda Polvonniyoz Ota (Polli duzchi), dutorchi va go'yanda Qurbonniyoz Avazmat o'g'li (Qurji ota), doyrachi va hofiz Matyoqub Otajonov, go'yanda Madrahim Yoqubov (Sheroziy) va boshqalar.

Ularning har biri o'z yo'lida tarbiyat ko'rgan va shogirdlar ergashtira boshlagan yetuk san'atkorlar edi. Qadimiy urf-odatlarga ko'ra, bu san'atkorlarni o'ziga xos maktablar boshida turgan ustozlarga qiyos qilish mumkin. Ana shunday muhit yosh san'atkorlarga talab va ehtiyojlarga qarab bilim va mahorat oshirish imkoniyatini berardi. Shunday qilib, Hojixonning ma'naviy yo'lboshchisi Masharipjon pir bo'lsa, sozandalik borasida unga yo'l-yo'riq ko'rsatgan, dastgirlik qilgan gurlanlik hofiz Bobojon bola bo'ldi.

Hojixon ko'proq xonaki bazmlarda, soz va so'z qadriga yetadigan muxlislar davrasida miriqib ashula aytib, o'zi ham rohatlanib, tinglovchilarga ham huzur baxsh etib yurdi. Hojixonning o'zligini tark etishi, maqom va suvora yo'llarini ilohiy holatlarda aytishi to'g'risidagi gap-so'z xalq og'ziga tushib, hangoma va rivoyatlarga aylana boshladi.

Hojihon san'ati, eng avvalo, o'zining yetukligi, mukammalligi va badiiy barkamolligi bilan alohida diqqatga sazovor. Hofiz 80 yoshga to'lganida ham baland avjlardagi tik pardalarni bemalol qiynalmasdan ijro etar edi. Shuning uchun ham Hojixon hech vaqt ashula aytib charchagan, qiynalgan emas. Hofizlik san'atining muhim sharti ham shunda.

Maqom va suvora yo'llari aslida soz va so'z mushtarakligining oly namunasi. Shuning uchun, yetuk hofizlar, odatda, she'riyat bilimdonlari ham bo'lganlar. Hojixon ijodi ana shu mushtaraklikning jiddiy ko'rinishi. Ular, o'zining ijro dasturlari doirasida g'azal biladigan boshqa ashulachilardan farqli o'laroq, chinakam she'riyat bilimdonlari darajasida gavdalananadi. U yuzlab she'rlarni xotirasida saqlab, ketma-ket bir necha kun o'zini takrorlamasdan g'azal va muxammaslar aytishda muxlislarni doim hayratga solgan.

Hofiz shu darajada she'riyat oshnosи bo'lganki, Fuzuliy, Mashrab, Maxtumquli va Ogahiy devonlarini deyarli yoddan bilgan. Bundan tashqari u Masharipjon Pirdan olgan ta'limotiga binoan chuqur falsafiy mavzudagi she'r larning mazmunini chaqishda, ramziy-majoziy timsollar niqobiga yashiringan ma'nolarni chaqishda ham peshqadamlik qilgan.

Ustoz talqin etgan maqom va svora yo'llari juda ko'p ijro variantlaridagi ovoz yozuvlarida bizgacha yetib kelgan. Demak, san'atkor doim erkin ijodiy holatda bo'lgan deyish mumkin. Uning ijrosidagi har bir asar muayyan maqom, svora yo'lidagi kuy yoki ashula ekanligiga shubha qoldirmaydi. Lekin har safar u yangi ijod ilhomni bilan sug'orilganligi ham begumon. Betakror ijodkor san'atining yuksakligining asl ma'no-mazmuni ham shunda.

### DIYRALISHMA – SUVORA AYTISHUVI

Xorazmda ashula ijrochiligidagi ayrim zabardast hofizlarga nisbatan "kulliyotiy" degan ibora ishlatalgan. Bu hofizlar ma'lum bir shoir devoniga kiruvchi she'r larni to'la yoddan bilganlar. Masalan, ustoz Hojixon Boltayev Ogahiyning "Ta'viz-ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumor") devoni dagi barcha g'azal va muxammaslarni yoddan bilgan va o'z ijrolarida foydalangan.

Suvora ijrochiligidagi hofizlar so'z va usul o'ynatish degan iboralar qo'llanilgan. Bu uslubda ijrochilar g'azallarni qo'shiq ohanglariga solib aytiganda ularning she'riy vaznlari umumiy musiqiy-ritm ichiga singib ketadi. Buning sabablari quyidagicha: musiqiy omillar, xususan, takt o'lchovi, doyra usuli, cholg'u asboblar hamda ijrodagi urg'u vositalari she'r vaznidagilarga nisbatan ko'p va kuchliroq bo'lganligi uchun

eshitilishda ulardan ustun keladi. Shunga ko'ra ijroda she'rga ko'ra musiqiy vazn oldingi qatorga chiqib oladi.

Aslida, amaliyotda she'r hamda kuy vaznlarini uchma - uch mos keltirish juda bir qat'iy qoida emas. Aksincha, zabardast hofizlar ijro etgan namunalarni nazardan o'tkazadigan bo'lsak, ular matnlardan ancha erkin foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Mohir ustozlar she'r bo'g'inlarini qo'shib aytish yoki o'zлari kiritadigan tovushlar hisobiga 15-16 lik g'azallarni 13-14 bo'g'inli shaklda va aksincha, misralarni cho'zibroq ijro etib ketaverganlar.

G'azal o'ynatish, butun ashula yoki uning bir jumlasining ichida she'riy matnni turli vaznlarga solib aytish, yagona usul jo'rлигидаги куй лавхаларда vazn almashtirishdir. Demak, usul bilan kuy vazni muvofiq kelgan joylarda bir xil munosabat, ular ajralib, mustaqillashib ketganda esa boshqa vaziyat yuzaga keladi.

So'nggisida ikki qatlamlı qo'sh vazn (poliritmiya), ya'ni doyra usulida bir xil, kuya boshqa usul oqimi paydo bo'ladi. Bunday amallar Xorazmda "qochirim" deyiladi. Shu ma'nodaki, ashula yo'lida doyra usulidan chekingan boshqa vazn yuzaga keladi. Hojixon Boltayev, Quvondiq Iskandarov ijrosida usulda qochirim qilish va Ro'zimat Jumaniyozov aytgan ashulalarda usul va nafasda (nafas olmasdan keyingi misralarni o'qish) qochirim turlari juda ko'p uchraydi.

Yuqorida keltirilgan doyra usuli bilan bir qatorda "vazn o'yini"ni namoyish etish qochirim turlari sozanda va xonandaning yuksak mahoratidan dalolat beradi.

Xorazmda ilgari mashhur avliyolarning ziyyaratgohlarida ro'za va qurban hayiti kunlarida, shuningdek, rajab va safar oylarida katta sayillar

uyushtirish odad qilingan. Katta sayillar, shuningdek, kichik bazmlarda hofizlar orasida suvoriy aytishuv (diyralishma)lari juda rivoj topgan.

Ma'lumki, ilgari zamonlarda har bir sozanda yoki go'yandaning asosiy kasb-hunari bo'lgan. U paytda san'atkorlik kasb hisoblanmagan. Eng yetuk san'atkorlarning ham biri xarrot, biri misgar, yana biri temirchi bo'lgan. Polvon Nazir akaning o'zi va ajodolari tuz konidan tuz olib kelib sotish bilan shug'ullanganlar. Shuning uchun Polli tuzchi, xorazmcha "duzchi" laqabi bilan tanilgan.

XX asrning 20-30-yillarigacha suvoriy diyralishma (aytishuv)larida eng mashhur hofiz go'yandalardan biri Polli duzchi bo'lgan. "Xiva yaqinidagi Doshyoq qishlog'i Ko'zli buva degan avliyo atrofida "Bozorishab"da oqshomlari ba'zan tong otguniga qadar ashula aytib shinavandalarning ko'ngillarini hushnud etgan. Uning ovozi Xiva qa'lasidan uch-to'rt chaqirim uzoqda bo'lgan "Gandimyon" qishlog'ida ham eshitilgan ekan".

XX asrning boshlarida Xorazm qo'shiqchilik san'atiga kirib kelgan Qurji ota Avazmatov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Hojixon Boltayev, Nurmuhammad Boltayevlar (diyralishib) muxlislarga benazir zavq bergan. Biroq 1930-40-yillarda ulug'vor suvora yo'llarini ijro etishni zamon ko'tarmadi. Bu davrda suvoralar asosan xoslar davrasida, musiqa va she'riyat muxlislaringin nafis majlislarida ijro etib yurilgan. 1960-80 yillarga kelib Hojixon maktabi davomchilari Qutlimurod Hojiyev, Muhamadjon Bog'ibekov, Sotim Avazov, O'rionboy Otajonov, Sharif Boltayev, Abdusharif Vafoyev, Ro'zimat Jumaniyozov, Iskandar Pirmatov, Quvondiq Iskandarov, Rauf Olloberganov, Qalandar Matyoqubov, Komiljon Otaniyozov ijro uslubida Bekjon Otajonov,

Matmurat Salayev, Quranboy Axmedov, Otajon Xudoysukurov, Ortiq Otajonov, Matnazar Niyoziyev, Rahimboy Qo'chqarov, Yo'ldosh Xudayberganov, Ahmadjon Qurbonboyev, Rajabboy Jabborov, Og'aboy Qurbonov kabi hofizlarimiz o'z repertuarlarida suvoralarini ijro qilganlar. Bu ustozlarni juda ko'p ijro variantlaridagi ovoz yozuvlarida bizgacha yetib kelgan.

Suvoralar Farg'ona vodiysi, Tojikistonda keng tarqalgan bo'lib, O'zbekiston xalq hofizlari Jo'raxon Sultanov, Ma'murjon Uzoqov, Rasulqori Mamadaliyev, O'zbekiston xalq artistlari Orifxon Hotamov, Tavakkal Qodirov va Tojikiston xalq hofizi Ma'rufxo'ja Bahodirovlarning ijrochilik amaliyotida ham keng o'rinni olgan. Bu hofizlar o'zlaridan oldin o'tgan ustozlar an'analarini davom ettirib, an'anaviy ijrochiligidan har qaysilari bir-biriga o'xshamagan ajoyib ijro uslublarini yaratdilar.

E'tiqodi baland suvora ijrochiligi amaliyotida mashhur xonandalar tomonidan qator suvoralar yaratilgan. "Qorichmoniy suvora" (Hojixon Boltayev) "Suvorai Komil" (Komiljon Otaniyozov)dan tashqari "Indamas suvora" (Quvondiq Iskandarov), "Hazorasp" suvorasi (Iskandar Pirmatov), "Go'jayi suvora" (Ozod Ibrohimov), "Nim parda suvora" (Rahmatjon Qurbonov) deb nomlangan durdona asarlar paydo bo'ldi.

Suvora diyralishma san'atini e'zozlab, sayqal berib, xalq nazariga tushgan O'zbekiston xalq hofizlari Ro'zimat Jumaniyozov va Quvondiq Iskandarov, Otamurod Hojiyev va Rahmatjon Qurbonov, Ozod Ibrahimov va Matnazar Xudoynazarov, Rauf Olloberganov va Soyibjon Niyoziyev, O'zbekiston xalq hofizi Farhod Davlatov va Komiljon Bobojonov, Jumaniyoz Jumaniyozov, Xudaybergan Xudayberganov, Samandar Xudayberganov va Azamat Otajonovlar respublika va viloyat

televideniyalari orqali diyralishmalar qilib ustozlar an'analarini davom ettirganlar. Bu aytishuvlar do'stona va samimiy ruhda o'tgan. Bir-biriga raqobat emas, bir-birini mulzam qilish ma'nosida emas, bir-birlaridan ilhom olish, o'zlarining san'atini, iqtidorini ko'rsatib, yonidagi hofiz ijodidan ham bahramand bo'lish, undan nimalarnidir ilg'ab olish va o'rganish tarzida kechgan. Bu an'analar xozirda O'zbekiston xalq hofizlari Soyibjon Niyozov, Orolmirzo Safarov, O'lmas Olloberganov, Samandar Xudoyberganov, Shokir Bobojonov, O'zbekiston xalq artistlari aka uka G'ofurjon va G'ulomjon Eshchonovlar, Shuhrat medali sohiblari Azamat Otajonov va Ochilbek Matchonov, Shavkat Matyoqubov, Quvondiq Matkarimovlar davom ettirmoqdalar.

### SUVORALAR MUXLIS VA SHINAVANDALAR NAZARIDA

Sozanda va hofizning ijro etgan kuy yoki ashulasiga baho beruvchi tinglovchi muxlis yoki *shinavanda* deyiladi. Bunda birinchisi – soz san'atiga havas qo'ygan muxlis. Shinavanda kuy va ashulani idroklaydigan, tushunadigan tinglovchi. Shinavanda (tushunuvchi) – musiqa haqida ma'lum tushunchalarga ega bo'lgan va unga nisbatan alohida ishqibozlikni bildiruvchi o'ziga xos muxlislikni nazarda tutadi. Tarixdan ma'lumki, sozanda va hofiz san'atining taraqqiyotida shinavanda-ishqibozligining ahamiyati muhim va e'tiborlidir.

Korazmda maqom va suvora shinavandalarini o'ziga xos an'analar shakllangan. Bu hofizlik san'atining taraqqiyotida muhim o'rinn tutgan. Jonibek Eshchonov, Niyozmat Matchonov, Ahmadjon Yusupov, Ahmadjon Sobirov, Marks Jumaniyozov, Telman Musayev, Polvonnazar Madrahimov, Otaboy Ro'zmetov, Nodirbek Jumaniyozov, Xushnudbek

G'afforov, Ahmadjon Matchonov, Ganjaboy Yusupovlar san'atkorlarga ham ishqibozlik, ham homiylik qilib, soz bazmlarini bevosita ishtirokchisi bo'lib, hofiz yoki sozanda qatorida xayolan ijod jarayoniga qo'shilib, so'z matni, kuyning ohangi, usuli va boshqa jihatlarini ongli ravishda nazorat qilib, zavq olib, huzur qilib o'tirganlar. Bugungi kunda viloyat televideniyasi orqali muntazam ravishda efirga uzatilib kelinayotgan "Suvora supasi" ko'rsatuvi uchun o'z yashash xonadoni (yozgi ayvонида) maxsus joy qilgan shinavanda Ulug'bek Ismoilov Suvora diyralishmalarini yozib olish ishlariga yaqindan yordam berib kelmoqda.

### SUVORAMI YOKI SUVORIY?

Suvora haqida ayrim manbalarda chalkash fikrlar keltirilgan. Ularda "Suvora (forscha "suvoriy" – otliq) – Xorazm maqomlari tarkibidagi ashula yo'llari deb yozilgan. Suvora so'zi "suvoriy" so'zidan kelib chiqqanligi bejiz emas, chunki ustozlarning aytishicha, Suvoralarning ritm, doira usullari otning oyoq tovushi holatidan olingan deyiladi".

Bugungi kunda Xorazm maqomoti tuzilmalarini nazariy va amaliy o'rganishda asosiy manba "Tanbur chizig'i" yozuvlari hisoblanadi. Bu nodir manbada maqomlar tuzilishida "suvora" degan so'z uchramaydi. Bu o'rinda "Suvoriy" degan ibora ishlatilgan. "Suvoriy" 13 chorakli doira usulida yozilgan. Agarda yuqoridagi ma'lumotlarni "Suvoriy" usuli bilan taqqoslaydigan bo'lsak, otning 4 oyog'ini tovush holati qanday qilib 13 chorakka to'g'ri kelishi mumkin.

Korazm maqomlarining aytim qismidagi "Suvoriylar" Tani maqom (Saraxbor)dan keyin ergashib keladigan taronalardan biri. Tayanch bo'lgan Tani maqom qismiga nisbatan qarama-qarshi xarakterdagи tarona qismidan

keyin keladi. Suvoriylarda boshqa qismlarda uchramaydigan 13/4 (6/4 va 7/4) vazn o‘lchovlari qo‘llaniladi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, “Suvora” alohida janr, “Suvoriy” Xorazm olti yarim maqom tuzilmasida Tani maqom, tarona qismlaridan keyin (tarona o‘rnida) keladigan qism. Olti yarim maqom tuzilmasida Iroqdan tashqari beshta (Rost, Navo, Buzruk, Dugoh va Segoh) maqomda “Suvoriy” qismlari mavjud. “Suvoriy” turkumi nafaqat Xorazm uslubida, balki Shashmaqom tarkibiy qismlarining ketma-ketligida kuzatiladi.

Shunday qilib, aytilgan fikrlarni umumlashtirsak, an’analar vorisligi ularning hayotiyligi bilan ajralib turadi. An’anani anglash o‘tmishning takrori emas, balki mazmunli ijodiy munosabat, uning yangi tarixiy sharoitlarda rivojlanishi bo‘lib, bugungi kunda suvora qo‘shiqlari misolida mumtoz va an’anaviy musiqa va she’riy qadriyatlarga bo‘lgan talab buning yorqin dalilidir.

### SUVORA IJROCHILIK AN’ANALARI USTOZLAR MEROSIDA

O‘zbek qo‘shiqchilik san’atida alohida o‘ringa ega bo‘lgan Suvoralar o‘z tabiatiga ko‘ra avloddan-avlodga og‘zaki ravishda o‘tib boradigan an’anaviy musiqa toifasiga mansub. An’ana faqat o‘tmish mahsuli, uning g‘oyasi emas, balki kelajakni ilhomlantiruvchi yangi yo‘l-yo‘riqlarga, izchil rivojlanishga zamin yaratuvchi holdir.

Suvora ijrochiligi va uning taraqqiyoti o‘tmish yutuqlariga sadoqat, yangi ufqlarga intilish, muntazam harakatlanib va o‘zgarib turuvchi ichki ziddiyatlariga asoslanadi.

San’atda ustoz-shogird munosabatlari bir tomonlama o‘tadigan oddiy narsa emas. Og‘zaki musiqa sharoitida ustozdan ta’lim olish, uning izidan ergashish bevosita tajribadan, har bir alohida vaziyatda o‘z qonunlarini taqozo qiladigan hayotiy maktab. Ayrim shogirdlar uzoq yillar davomida ustozning panohida yurib mahorat sirlarini o‘zlashtiradi. Ba’zan yosh san’atkor biron ustozni o‘ziga “yo‘lchi yulduz” qilib, uning ijodini o‘zi mustaqil o‘rgana boshlaydi. Mohir ustozlar suvora ijrochiligi yo‘lidagi an’ana rishtasi uzilmasligi uchun o‘z san’atlarini yangi avlodga uqtirib, xalq merosiga mehr-muhabbat uyg‘otib kelishgan. Ushbu kitobimizda suvora ijrochilik an’analarini saqlab kelgan ustozlar haqidagi ma’lumotlar kiritishni lozim topdik. Ma’lumotlar ustozlarni farzandlari avlod-ajdodlari va shogirdlari yozib olindi.

**Qurji ota Avazmatov (1868-1940)** Xivada tug‘ilgan. U xalq orasida ashulachi va dutorchi sifatida tanilgan. Xon saroyida quruvchilik qilgan. Shu davrda xon saroyidagi sozandalar va hofizlar ijrosidagi kuy va qo‘shiqlarni eshitib, o‘zi ham ularga taqlid qila boshlaydi. U Xorazm suvora turkumlari ijrochisi-sozanda sifatida tanildi. Sheroziy, Komiljon Otaniyozovlar uning shogirdlaridir.

**Polvon duzchi (1888-1940).** Xalq ichida Polli duzchi nomi bilan mashhur bo‘lgan. Xorazm Suvora turkumlarini mohir ijrochisi Polvon duzchi Xivada hunarmandlar yurti bo‘lgan Gandimyon qishlog‘ida tuz sotuvchi oilasida dunyoga kelgan. Xon saroyining atoqli hofizi bo‘lgan. Shuningdek, o‘z davrida suvoraxonlik maskani bo‘lgan qalandarxonalarda ashula aytib el nazariga tushgan. Hazorasplik Mashrifjon pir va boshqa ulamolari davralaridagi suvoraxonlik anjumanlarida o‘z san’atini namoyish qilgan. U Xivadagi Doshyoq qishlog‘ida joylashgan Ko‘zli buva

degan avliyo atrofida o'tkazilgan Bozori shab (lug'atda kecha, tun)da suvora diyralishmalarida qatnashgan. Zamondoshlarining eslashiga qaraganda bu aytishuvlar tong otguniga qadar davom etgan.

**Madrahim Yoqubov** (taxallusi Sheroyi – 1890-1973) Xivada tug'ilgan. Xonanda va sozanda (dutor, garmon). O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1949), O'zbekiston Xalq artisti (1970). Qurji ota Avazmatovdan dutor chalishni, Polvon duzchidan suvora yo'llarini o'zlashtirgan.

Uning ijrosida ilk bora 1932 yilda “Kajang Suvora”, keyinchalik 1965 yilda Xorazm suvora turkumlari plastinkalarga yozib olingan.

**Hojixon Boltayev (1902-1987)** Xorazm viloyatining Xonqa shahri yonidagi Qorichmoniy qishlog'ida tug'ilgan. Yoshligida musiqa va she'riyatga katta ixlos qo'ygan. O'zbekiston xalq artisti, Xorazm maqomchilik makkabining yetuk namoyandasi. Xorazm Suvora ijrochilik maktabi asoschisi.

**Nurmuhammad (Nurmamat) Boltayev (1911-1974)** Hojixon Boltayevning ukasi. Ularning qo'shilib ijro etgan Suvora ashulalari hamnafaslik ijro uslubining eng ko'rkan namunalari qatoridan o'rinn olgan. Nurmuhammad Boltayev sozanda sifatida maqomlarning cholg'u yo'llaridan Miskin va Roviyarni juda mohirlik bilan ijro etgan.

